

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O'ZBEK TILI YO'NALISHI**

**4-kurs, 401 - guruh bitiruvchisi**

**SAYFIDDINOVA ZULXUMOR  
ZAFARMIRZA QIZIning**

**bakalavr darajasini olish uchun**

**«O'quvchilarga xos tipik imloviy  
xatolarni bartaraf qilish  
texnologiyalari»**

**mavzusida yozgan**

**BITIRUV - MALAKAVIY  
ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**p.f.n., dotsent M.SOBIROVA**

**Namangan – 2016 yil**

# **O`quvchilarga xos tipik imloviy xatolarni bartaraf qilish texnologiyalari**

R E J A

## **Kirish**

### **1- bob. Yozma ishlar va ularning turlari:**

- 1.1. Diktant o`tkazish texnologiyasi.**
- 1.2. Bayon o`tkazish texnologiyasi.**
- 1.3. Insho o`tkazish texnologiyasi.**
- 1.4. Diktant, bayon, inshoni baholash mezonlari.**

### **2- bob. Tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalari:**

- 2.1. Qo`pol (jiddiy) va qo`pol bo`lmagan (juz`iy) xatolar  
ustida ishlash.**
- 2.2. Bir xil va har xil tipdagi xatolar ustida ishlash.**
- 2.3. Takroriy va tasodifiy xatolar ustida ishlash.**

**Umumiy xulosalar.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik qo`lga kiritilgandan so`ng Prezidentimiz ko`rsatmasi bilan ta`lim tizimini tubdan yaxshilashga jiddiy e`tibor berildi. Shu sababli «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Dasturga muvofiq ta`lim tizimida katta sifatiy o`zgarishlar yuz berdi. Yurtboshimiz I.A.Karimov o`qitish jarayonini tubdan o`zgartirishga, o`quvchilarni nafaol kuzatuvchidan faol, savodxon, mushohadali, fikrlaydigan sub`ektga aylantirishga da`vat etmoqdalar. O`qitishning bosh maqsadi o`quvchilar fikrini o`stirishga qaratildi.

Respublikamizda umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun Davlat ta`lim standartlari ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo`lgan talablar ham ortmoqda. Yozma nutq faoliyati insoniyat uchun eng mahsuldor tur hisoblanadi. Yozma ishlar ona tili va adabiyotdan o`quvchining qanchalik bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`layotganini, nutq madaniyati taraqqiyoti darajasini, savodxonligini ko`rsatsa, ikkinchi tomondan, matn mazmuni orqali axloqiy-estetik kamolotga etaklaydi, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdiradi, chinakam insoniy fazilatlarini shakllantiradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Respublika Oliy majlisi 1X sessiyasida so`zlagan nutqlarida jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi - zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog`liqligini qayd etadi. «Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyot va istiqbolimiz, islohot va rejalarimiz taqdiri, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis tayyorlash»<sup>1</sup>da dars mashg`uloti muhim rol` o`ynaydi. Shu sababli unga qo`yiladigan talab ham ijtimoiy taraqqiyotga mos ravishda doim o`sib boradi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning «Maqsadimiz - jahon fani va tafakkuri cho`qqilarini o`zlashtirishga doimiy intilishdir. Boshqacha aytganda, biz o`tmishdan olayotgan merosni hozirgi kunda yaratilayotgan buyuk kashfiyotlar bilan

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. «Юсак малакали мутахассислар - таракқиёт омили». -Т.: 1995.

uyg'unlashtirmog'imiz kerak»,<sup>1</sup> «Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim»<sup>2</sup> degan fikrlarini ham esga olish joiz.

Darslarda o'rganiladigan bilimlar tizimi fanning so'nggi yutuqlariga asoslanib, tanlangan komp'yuter dasturlariga kiritilgan bo'lishi zarur.

Ta'limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rnini, o'z vazifasi bor. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv-texnika vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Davlat ta'lim standartlari»ning e'lon etilishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir.

O'quvchilar yozma nutqidagi xatolarni miqdor jihatidan aniqlash o'quvchilarning umumiy savodxonlik darajasini belgilash uchun qulay bo'lib, bilimni oshirishda amaliy qimmatga ega emas. O'quvchilar bilimni oshirish va mustahkamlash, malakasini kengaytirishda esa xatolar sifati (tipi va xarakteri)ga e'tibor berish muhim ilmiy-metodik va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda olganda o'quvchilarga xos tipik imloviy xatolarni bartaraf qilish texnologiyalarini o'rganish masalasi **dolzarblik** kasb etadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. -Тошкент: Ўзбекистон, 2001. - Б. 278

<sup>2</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: Шарқ. 1998. - Б. 132-154.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv-malakaviy ishida diktant, bayon, insho o`tkazish texnologiyasini sharhlashni; diktant, bayon, inshoni baholash mezonlarini izohlashni; tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalarini ishlab chiqishni; qo`pol (jiddiy) va qo`pol bo`lmagan (juz`iy) xatolar, bir xil va har xil tipdagi xatolar, takroriy va tasodifiy xatolar ustida ishlashning samarali yo`llarini ko`rsatishni maqsad qildik.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** qo`yildi:

- diktant, bayon, insho o`tkazish texnologiyasini sharhlash;
- diktant, bayon, inshoni baholash mezonlari izohlash;
- tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalarini ishlab chiqish;
- qo`pol (jiddiy) va qo`pol bo`lmagan (juz`iy) xatolarni ko`rsatish;
- bir xil va har xil tipdagi xatolarni ko`rsatish;
- takroriy va tasodifiy xatolar ustida ishlashning samarali yo`llarini ko`rsatish.

**Bitiruv-malakaviy ish o`rganilish darajasining qiyosiy tahlili.** Metodist olimlarimizdan Asqar G`ulomov, Hamid Ne`matov, Abdulhamid Nurmonov, Ravshan Rasulov, Nizomiddin Mahmudov, Boqijon To`xliyev, Tursunoy Ziyodova, Mahbuba Sobirova va boshqalarning<sup>1</sup> ishlarida yozma ishlardagi xatolar va ularni tuzatishga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan. Nomi ta`kidlab o`tilgan tadqiqotchilarning ishlarida diktant, bayon, insho o`tkazish masalalariga e`tibor qaratilgan bo`lib, masalaga tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalarini ko`rsatish maqsadida yondashilmagan.

**Ishning ob`ekti va predmeti.** Ona tili darslarida tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalarini o`rganish masalasini echish uchun ta`lim maskanlariga borildi. Jumladan, Namangan shahridagi 5-, 11-, 18-,

---

<sup>1</sup> **Tўрахўжаева М.** Дарсада саводхонлик дақиқаси. //Тил ва адабиёт таълими. 2015 й. 11-сон, 3-6-бет;  
**Толипова Р.** Она тилини ўқитиш муаммолари. //Тил ва адабиёт таълими. 2014 й. 1-сон, 3-7-бет;  
**Хусанбоева Қ.** Адабий таълимда иншоларнинг ўрни. //Тил ва адабиёт таълими. 2015 й. 2-сон, 3-7-бет;  
**Булекбаева Ч.** Янги усулда иншо ёздириш тажрибасидан. //Тил ва адабиёт таълими. 2016 й. 2-сон, 3-7-бет  
7-сон, 7-9-бет.

58-maktablarga hamda NamDU qoshidagi 1-akademik litsey, 2-akademik litseylarda tajriba ishlari olib borildi. Ta`lim maskanlaridagi o`quvchilar bizning tadqiqot ishimiz ob`ekti hisoblanadi.

**Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy ahamiyati.** Bitiruv-malakaviy ishida diktant, bayon, insho o`tkazish texnologiyasini sharhlanadi. Diktant, bayon, inshoni baholash mezonlari izohlanadi. Tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalari ishlab chiqiladi.

Qo`pol (jiddiy) va qo`pol bo`lmagan (juz`iy) xatolar, bir xil va har xil tipdagi xatolar, takroriy va tasodifiy xatolar izohlanadi hamda ular ustida ishlashning samarali yo`llari ko`rsatiladi.

**Bitiruv-malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Ish natijalaridan ona tili o`qitish jarayonida, ochiq darslarni tashkil qilishda, ta`lim maskanlarida seminar mashg`ulotlarini o`tkazishda, umuman, til ta`limi sifatini oshirishda foydalanish mumkin.

**Ishning nazariy asoslari va unda qo`llangan metodlar.** Mavzuni yoritishda metodist olimlar Asqar G`ulomov, Hamid Ne`matov, Abdulhamid Nurmonov, Ravshan Rasulov, Nizomiddin Mahmudov, Boqijon To`xlieev, Tursunoy Ziyodova, Mahbuba Sobirova va boshqa metodist olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalandik. Ishda tavsiflash, qiyoslash, tasniflash va tajriba-sinov metodlaridan foydalandik.

**Bitiruv-malakaviy ish manbalari.** Bitiruv-malakaviy ishimizning manbai o`zimizning kuzatishlarimiz, tajribali, ilg`or o`qituvchilarning darslarini kuzatib, tahlil qilishimiz, pedagogik amaliyot davrida olib borgan izlanishlarimiz hisoblanadi.

**Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami \_\_\_\_ betni tashkil qiladi.

# **1-bob. Yozma ishlar va ularning turlari:**

## **1.2. Diktant o`tkazish texnologiyasi**

Respublikamizda umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun Davlat ta`lim standartlari ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo`lgan talablar ham ortmoqda. DTSda ko`rsatilganidek, o`quvchi 5-10 daqiqa ichida mustaqil ijod qilib, o`zining fikr-mulohazalarini sodda, ravon tilda mukammal ifoda qilishi va kamida 20-25 ta jumla yoza olishi kerak.

Har bir o`quvchi ijodiy ishni yozishdan oldin mavzuni to`liq o`zlashtirgan va mustaqil tahlil qila oladigan bo`lishi kerak. Tanlangan mavzuni dalillar asosida, manbalar bilan boyitgan holda ijodiy yondashib bayon etishi kerak.

Dars jarayonida amalga oshiriladigan yozma mashg`ulotlarning aksariyati ko`chirib yozish, savollarga javob yozish, tayanch so`zlar asosida matn yaratishdir. Yozma mashg`ulotlar o`quvchilarning yoshi va bilim darajasiga qarab soddadan murakkabga tomon berilishi kerak. Shuning uchun ham biz, avvalo, yozma nutq o`zi nima, uning ta`lim jarayonidagi ahamiyati, o`rni haqida qisqa to`xtalib o`tmoqchimiz.

Yozma nutq faoliyati insoniyat uchun eng mahsuldor tur hisoblanadi. O`quvchilarni yozma nutqqa o`rgatish uning salmog`ini oshirish yo`li bilan asta-sekin murakkablashib borishi kerak. Maktabda yozma ishlar qaysi maqsadda o`tkazilishiga qarab ikki turga bo`linadi:

- a) ta`limiy yozma ishlar: diktant, bayon, insho;
- b) tekshiruv (nazorat) yozma ishlari.

Yozuv grammatik nutq malakalarini ixcham shakllantirish vositasi sifatida o`quvchining shaxsiy yozma nutqini tuzishda (xat, tabrik so`zi, taklifnoma, tajrimai hol, qisqa nutqlar, tezislar va hokazolar) ko`nikma va malakalar hosil qilishga xizmat qiladi. Bu mashg`ulotlarni o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish mashg`ulotlari deb ataymiz. Adabiyot darslarida nutq o`stirish uchun og`zaki va yozma nutq o`stirishning alohida usullaridan foydalaniladi. Bu usullar bir-birini taqozo qiladi va bir-birini to`ldiradi. O`qituvchi fanlararo

bog'lanishni yo'lga qo'yishi uchun o'quvchilar so'z boyligini oshirib, o'rganilgan so'zlar asosida matn tuzish malakalarini shakllantirmasa, o'quvchilarning maktab o'quv dasturlari talabidagi nutqini zaruriy me'yorga etkaza olmaydi.<sup>1</sup> Og'zaki nutq o'stirishning eng samarali usullari, bizningcha, quyidagilar:

1. Badiiy matnni ifodali o'qish.
2. Badiiy asarni yoki uning parchasini yod olish.
3. Badiiy matnni izohli o'qish.
4. Tushunilmagan so'zlar ustida ishlash.
5. Badiiy matnni qayta hikoyalash.
6. Matn qismlariga sarlavhalar topish.
7. Savollarga javob topish.
8. Asar g'oyasiga mos xalq maqollarini topish.
9. Sifatlashlar, sinonimlar va antonimlar ustida ishlash.
10. Nutqning mantiqiy izchilligiga va bo'yoqdorligiga erishish mashqlari.
11. Reja asosida so'zlash.
12. Badiiy asarlardan olingan taassurotlarni erkin va izchil ravishda ifodalash uchun mashqlar.
13. Og'zaki insho.

Adabiyot darslarida yozma nutq o'stirishning, asosan, uch turidan foydalaniladi:

1. Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlar.
2. Bayonlar.
3. Insholar.

Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlar vositasida nutq o'stirishni dastlabki adabiyot darslaridanoq amalga oshirishga kirishiladi. O'quvchilarga adabiyot daftari tutdirilishi bu ishning izchilligi va samaradorligi uchun yo'l ochadi. Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlarning quyidagi turlari mavjud:

---

<sup>1</sup> Собирова М.Муаммоли таълим-матн устида ишлаш самарадорлигини ошириш омили.«Таълим жараёнида матн устида ишлашнинг асосий омили». Тошкент, 1997 йил, 87-88-бетлар; Муаммоли таълим жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш. «Дарс самарадорлигини ошириш» илмий ва методик ишлар тўплами. Наманган, 1997 йил, 91-97-бетлар; Ўқувчилар нутқини ўстиришда муаммоли саволлар. «Тил ва адабиёт таълими» журнали, Тошкент, 1997 йил 3-сон 25-30-бетлар; Матн устида ишлаш жараёнида ўқувчи сўз бойлигини ошириш. «Тил ва адабиёт таълими» журнали, Тошкент, 1998 йил 1-сон 29-30 бетлар.



1. Lug'at ustida ishlash.
2. Matndan ko`chirib yozish.
3. Matn asosida konspektlashtirish.
4. Matn asosida tezislar tuzish.
5. Savollarga javoblar yozish.
6. Badiiy asar parchalariga sarlavhalar topish.
7. Sifatlashlar, sinonimlar, antonimlar topish.
8. Reja tuzish.
9. Fikrlarni dalillash uchun tsitata (iqtibos)lar topish. .
10. Badiiy asarni tahlil qilish.
11. epigraflar topib yozish.
12. Obrazga tavsif berish.
13. Badiiy asarga taqriz yozish.

Bu yozma ish turlari turli sinflarda mashq va topshiriqlar tarzida o`tkaziladi va bog`lanishli nutqning shakllanishida muhim rol o`ynaydi.

Ma'lum o`quvchilarning yoshi va bilim darajalariga qarab, so`zlarini ko`chirib yozish malakalari turlicha bo`ladi. Ularning yozish sur`ati sinfdan sinfga o`tgan sari tezlashib boradi.

O`quvchilarning dars jarayonida va uyda bajargan har bir yozuvlari ularni rag`batlantirish nuqtai nazaridan baholanishi kerak.

Shundan o`tkazilgan yozma ishlarga har bir baho uchun me'yor va mezonlar belgilanishi hamda xatolarning xarakteri, xili va miqdori hisobga olinishi kerak. Bu jihatdan ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- a) jiddiy va juz'iy xatolar:
- b) bir xil va har xil turdagi xatolar:
- v) takroriy va tasodifiy xatolar:
- g) o`tilgan va o`tilmagan imlolarga xos xatolar.

O`quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda **diktant**ning roli muhimdir. Diktantning samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadning aniqligi hamda metodning izchilligiga ko`ra belgilanadi. Diktant hozirgi o`zbek

adabiy tili me'yorlari talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan sinf o'quvchilari uchun tushunarli bo'lishi va bog'lanishli matn asosida tuzilishi zarur.

Nazorat diktanti hajmi:

5- sinf - 100-110 so`z

6- sinf - 110-120 so`z

7- sinf - 120-150 so`z

8- sinf - 150-170 so`z

9- sinf - 170-200 so`z

Lug'at diktant hajmi:

5- sinf - 20-25 so`z

6- sinf - 25-30 so`z

7- sinf - 30-35 so`z

8- sinf - 35-40 so`z

9- sinf - 40-45 so`z

## **5-sinfga matnlar**

### **Navro`z**

Navro`z mehnat va bunyodkorlik bayramidir. Bu kun xuddi tabiat singari inson ham qishning qahri ketganini his qiladi. Kunlar tobora isiydi. Xalqining rizqini yaratish uchun dehqon dalasiga yo`l oladi. Erni chopib, egatlar olib, rizq urug'ini qadaydi.

Navro`z mehr-oqibat, insonsevarlik bayramidir.

(39 ta so`z)

### **Vatan**

Vatan insonning kindik qoni to`kilgan tabarruk maskandir.

Vatan – insonning g'ururi. Har kim Vatani misolida o`zining baxtini ko`radi. Uning tabiati, go`zaligi, sehr-u jozibasi bizni yashashga undaydi.

Vatan ozod bo`lsa, xalq ham ozod bo`ladi. Vatan ravnaq topsa, xalq ham farovon yashaydi.

(39 ta so`z)

### **Vijdon**

Bir ayol savatda olma ko`tarib borardi. Savatdagi olmalardan biri erga tushib qoldi. Ayol buni sezmedi. Ayolning orqasidan kelayotgan bola uni sekingina olib, cho`ntagiga soldi. U ayolning yonidan o`tib ketayotgan edi, ayol uni to`xtatib, savatdagi olmadan birini unga uzatdi. Bola olmani olmadi. U cho`ntagidagi olmani olib, savatga tashladi va yugurib ketdi. Ayol uning orqasidan qarab qoldi. Bola uyiga kelib rosa yig'ladi.

### **Ona er**

Tabiatning ajoyib tuhfası Ona erimizdir. Er jamiki boyliklarning onasi hisoblanadi.

Tabiatni sevish, uni asrash, yon-atrofnı ko`kalamzorlashtirish, bog`u rog`larga aylantirish ham ona-Erni sevish demakdir.

Nima uchun Ona-Yer deymiz?

Shuning uchunki, dunyoga keliboq uning havosi bilan nafas olamiz. Onangiz sut, otangiz tuz bersa, Ona Yer non, obihayot beradi... Shuning uchun ham u eng ulug` inson - Ona nomi bilan bog`lab aytiladi

### **Ona tabiat**

Tabiat – ona kabi muqaddas. Bu o`xshatish bejizga aytilmagan. Zero, ona mo``tabarligi, ona mehri, shubhasiz, tabiat qadri teng o`lchanadi.

Yurtimiz tabiati dunyoning ne-ne go`zal o`lkalarini hali-hanuz lol qoldirib kelayotgani hech kimga sir emas. Afsuski, buni o`zimiz dildan his qilolmayapmiz. Bo`lmasa, har joyga axlat tashlab, atrof-muhit tozaligiga rahna solgan, maysalarni payhon qilib, jonzotlarga ozor bergan bo`larmidik?

Atrofdagi har bir giyoh, har bir jon borki, mehrga, e`tiborga muhtoj. Tabiat so`zini bejizga ona, vatan, zamin kabi muqaddas so`zlar qatoriga qo`ymaymiz. ey tengdoshlar, keling, ona tabiatni birgalikda asraylik.

### **Xotira**

Ko`klam fasli edi. Daraxtlarga endi ko`k yugurgan, ayniqsa, ko`cha bo`ylab terilgan adil, baland, ko`rkam teraklarning nafis yosh barglari mayin esgan shamolda shildirashi hanuz xotiramda. Hovlimiz Arpapoyada edi. U serdaraxt, sersuv, ko`rkam edi. Supada, quyuq daraxtlar soyasida yonboshlab Hamid Olimjonning ilk ijod mahsuli “Ko`klam”ni varaqladim. O`zimga ma`qul tushgan she`rlarni qayta-qayta o`qidim. Kitobni varaqlar ekanman, bu – yoshlikning xayol to`la ko`klam poeziyasi, shoirning samimiy mevasi va ilk qaldirg`ochi, dedim o`z-o`zimga. Haqiqatan, azamat, ulug`vor satrlar, ilhombaxsh, salmoqli ko`rinishlar, nafis hislar, tuyg`ular shoir she`riyatining jo`shqin mevasi edi. (O) (86 so`z)

## **6-sinfga matnlar**

### **Umr mazmuni**

Inson ezgu ishlar uchun tug`iladi. Berilgan umrni foydali ishlarga: ilm olish, mehnat qilish, hunar o`rganishga sarflash, ota-ona va insonlarga mehrlı bo`lishga bag`ishlash kerak. Odobli bolalar o`z vaqtini ana shunday ezgu ishlarga sarflashadi.

Umr mazmunini foydali ishga sarflangan vaqt, yaratilgan ixtiro, yozigan kitoblar, qurilgan imoratlar tashkil etadi. (46 ta so`z)

## **Onalik mehri**

Ona – bu hayot demak. Ona borki, hayot davom etadi. Onalarimiz bizni bir parcha etdan katta qilib, qatorga qo`shadilar. Oq yuvib, oq taraydilar, doimo boshimiz uzra parvona bo`ladilar. Onalarimiz oyog`imizga kirgan tikonni kipriklari bilan olishga tayyordirlar. Buning boisi bitta – bu onalik mehridir. (41 ta so`z)

## **Tabiat ham onamiz**

Tabiat – ona kabi muqaddas. Bu o`xshatish bejizga aytilmagan. Zero, ona mo`tabarligi, ona mehri, shubhasiz, tabiat qadri teng o`lchanadi. Yurtimiz tabiati dunyoning ne-ne go`zal o`lkalarini hali-hanuz lol qoldirib kelayotgani hech kimga sir emas. Afsuski, buni o`zimiz dildan his qilolmayapmiz. Bo`lmasa, har joyga axlat tashlab, atrof-muhit tozaligiga rahna solgan, maysalarni payhon qilib, jonzotlarga ozor bergan bo`larmidik?

Atrofdagi har bir giyoh, har bir jon borki, mehrga, e`tiborga muhtoj. Qachonki, biz ular istagini qondira olar ekanmiz, ana o`shandagina tabiat ham bizga o`z jilosini to`la ochib berishi mumkin. Tabiat so`zini bejizga ona, vatan, zamin kabi muqaddas so`zlar qatoriga qo`ymaymiz.

Ey tengdoshlar, keling, ona tabiatni birgalikda asraylik. Zero, tabiatimiz kelajakda ham yurtimizni qiyosi yo`q o`lka sifatida dunyoga tanitaversin. (118 ta so`z)

## **Shifobaxsh sumalak**

Sumalak – Navro`zning bosh taomi bo`lib, ilk ko`klam darakchisi, baraka, hosildorlik, to`kin-sochinlik, ahillik, tan sihatlik va ezgulik timsolidir. Bu taom ajdodlarimizdan bizga meros bo`lib, ayni bahorda, ko`klamda tayyorlanadi. Un, yog`, bug`doy qo`shib tayyorlangani bois sumalak darmondorilarga boy taom hisoblanadi. SHu sababdan odamlar uni shifobaxsh va parhez taom sifatida suyub iste`mol qilishadi.

Tabiblarning aytishlaricha, taomning tarkibida qonga juda tez so`riladigan moddalar bor. Undan tashqari bu taomda sog`-u bemor uchun zarur bo`lgan “S” darmondorisi bo`lib, u ko`p kasalliklarga yaxshi davodir. U qon tarkibini yaxshilaydi, tomirlar toraygan bo`lsa, qonni suyultiradi. Oshqozon va ichak yo`llari faoliyatini kuchaytiradi. Issig`i ko`tarilgan, qon bosimi oshgan kishilar sumalak esa, o`zini yaxshi his qiladi.

(109 ta so`z)

## **Ota-onaga hurmat**

Bolalar, ota-onani hurmat qilish, ular oldida adab bilan turib, xizmatlarini bajarish hammamizning vazifamizdir.

Ota-onalaringizni ranjitadigan so`zlar aytishdan, ko`ngillarini qoldiradigan ishlardan doimo saqlaning!

Aqlli bolalar ota-onalarini hurmat qilib, kuchlari etganicha ular xizmatida bo`ladilar. YOmon so`z aytishdan, achchiqlanib qarashdan o`zlarini saqlaydilar. Ota-onaga qanday xizmat qilish haqida sizlarga kichik bir misol keltiramiz.

Bir kishi kechasi uyqudan uyg`onib o`g`lidan suv berishini so`radi. O`g`li suv olib kelguncha, otasi yana uxlab qoldi. O`g`li: “Otam balki uyg`onib suv so`rar”,- deb uxlamasdan otasining uyg`onishini kutib tong otguncha o`tirdi.

Mana, bolalar adabli, tarbiyali bola shunday bo`ladi. Ota-onangizni izzat-hurmat qilishga, ularning olqishlarini olishga harakat qiling. Har bir bola ota-onasi qilgan nasihatlarini jon qulog`i bilan eshitib, ularga amal qilishi kerak. Ota-onasiga ozor berib, ularning dillarini og`ritadigan bola baxtli bo`lmaydi. (120 ta so`z)

### **Mangu yoshlik oroli**

(parcha)

Kishilar ko`zidan yiroqda joylashgan olis tumanning ufqlar ortida mangu yoshlik oroli mavjud. Sharqiy Yaponiya dengizining qoyali qirg`oqlari bo`yida yashovchi xalqning aytishicha, yilning ma`lum vaqtida dengiz to`lqinlari bilan birga ko`tariladigan afsonaviy daraxtni ko`rish mumkin. Bu Fuzano tog`i cho`qqisidagi o`lmas daraxtning o`zidir.

Garchi bu daraxt bir lahzaga namoyon bo`lsa-da, uning shoxlariga ko`zi tushgan kishi xuddi erta tongda shirin tush ko`rgan kabi o`zini baxtiyor sezadi. Orolida mangu bahor hukm suradi, havosi toza, shifobaxsh, hamisha tiniq, feruza osmondan daraxt va gullar yaprog`igaingan shudring ularda mangulik sirlarini namoyon etadi.

Orolidagi daraxtlarning nozik yaproqlari hech qachon o`z ko`rkamligini yo`qotmaydi. To`q pushti rang lolalar va gullar hech qachon so`limaydi.

Turfa gullar daraxtlar shoxlarini go`zallikka burkaydilar; norjil daraxtining mevalari esa hech qachon o`zining xushbo`yligini yo`qotmaydi va so`lish bilmaydi. «Ipak yo`li rivoyatlari» kitobidan. (124 ta so`z)

### **Tabiat mo`jizasi**

Jo`ralarning uyi gir atrofi tog` bilan o`ralgan qishloqning chetida, tepalikda yakka o`zi qaqqayib turar, bu erdan qishloq yaqqol ko`rinardi. Dadasi bilan oyisi Toshkentdagi qarindoshlarinikiga ketishgan, ikki kundan keyin qaytishlari kerak. eshik taqilladi, Jo`ra eshikni ochganda, uyga yopirilib kirgan shamol stol ustidagi daftar, kitoblaraning sahifalarini shitirlatib varaqladi, bosma erga uchib tushdi. Do`sti Ashir kelgan ekan, bo`ronda podadan ajralib yo`qolgan qo`yni qidirishga bel bog`ladilar. Ular uydan chiqqanlarida shamol hamon quturar edi. Bir dovon oshib, pastga tushib ketayotganlarida, avval yirik-yirik yomg`ir tomchilari tusha boshladi, keyin birdan jala quyib yubordi.

Bolalar rosa ividilar. Suv tomchilari bo`yinlaridan ichlariga oqib tushib, butun badanlarini jimirlashtirardi. Jala qanday boshlangan bo`lsa, shunday to`satdan tindi. Jilg`alardan suv sharillab oqdi. Sovuq shamol hamon tinmas, bolalarning quloqlari tagida vizillab hushtak chalar, yuz va burunlarini muzdek tili bilan yalardi. (F.M.) (127 so`z)

## **7-sinfga matnlar**

### **Aqlli bog'bon**

Bir bog'bonning uch o'g'li bor edi. Lekin bolalar dangasa va ishyoqmas o'sgan ekanlar. Otadan ularga meros qoladigan tanga, boylik yo'q edi. Bu ketishda esa ularning ko'p o'tmay xor-zor bo'lishi aniq edi. Ota umri tugayotganini bilib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday yo'l tutadi. Har uchala o'g'lini yoniga chaqiradi.

"O'g'lonlarim, — deydi u, — mening ajalim etganga o'xshaydi. Ko'zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnat-u mashaqqat bilan bir ko'za oltin yiqqanman. Uni mana shu boqqa, toklardan birining tagiga ko'mganman. U — sizlarniki. Biroq bu ishga ko'p yil bo'ldi. Harchand urinsam ham, ko'milgan joyini xotirlay olmadim. Uni o'zlaringiz izlab topinglar va o'zaro bo'lishib olinglar".

Ko'p o'tmay, chol jon beribdi. Bir ko'za tilla daragini eshitgan uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadilar. Bog'ning hamma erini kavlab chiqadilar. Sirli ko'za chiqmaydi. Yana erinmasdan kavlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo'q. Shu taxlit bog' ichi bir necha qayta ag'dar-to'ntar qilinadi. Erlar qazilaverib, tuproqlari kulga aylanib ketsa hamki, oltin ko'za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko'miladi va bog'da o'sha yili shunday hosil bitadiki, undan bir necha ko'zani to'ldirgulik oltin oladilar. Uch dangasa o'g'il otalarining purma'no nasihati ma'no-mohiyatini, oltin — mehnatda ekanligini tushinib etadilar.

(Abdulla Avloniy)

### **Ziyorat qilish**

Uyingizga sizni ziyorat etgali kelgan mehmonlarni muloyimlik bilan va ochiq yuz bilan qarshi olib ko'rishing, munosib joyga o'tkazib, hol-ahvolini so'rang. Kuchingiz etguncha ovqatdan va boshqa har jihatdan ularni mamnun qilib, izzat va hurmatlarini bajo keltiring. Keyin sizdan ruxsat olib, ketmoqchi bo'lib o'rinlaridan tursalar, ko'cha eshigigacha ularni kuzatib boring. Qarindosh-urug'laringiz yo do'stlaringiz yoki tanish-bilishlaringizni ziyorat qilish uchun ularning uylariga bormoqchi bo'lsangiz, avval uyga kiyadigan kiyimlaringizni echib, yuz, qo'llaringizni sovunlab, yaxshilab yuvib, toza kiyimlar kiyib, ularning uylariga boring.

Birovning uyiga borganingizda eshikni ochib, so'ramay-netmay ichkariga to'ppa-to'g'ri kirib bormang, oradan bir oz vaqt o'tkazib, eshikni uch marta taqillating, uy egasiga ziyorat uchun kelganingizni bildiring. Uy ichidagilardan tovush chiqmasa, hech kim yo'qligi anglashiladi. U vaqtda ko'p turmay, qaytib keting. Agar lozim topsangiz, kelganingizni bildirib, xat yozib, eshikning bir eriga qistirib keting.

Ziyorat qilishdan maqsad bir kishining uyidagi hol-ahvollarini tekshirish emas, balki o'zining unga bo'lgan hurmatini, do'stligini bildirishdir. SHunga ko'ra, kimni ziyorat qilgani, ko'rgani borsangiz, agar u kishi samimiy do'stingiz,

o`rtog`ingiz bo`lmasa, u bilan hazillashmang, uning narsalarini tekshirmang, kitoblarini, yozgan xatlarini axtarmang, hech bir narsasiga tegmang.

Uyiga sizni taklif qilgan kishining taklifini qabul qilib, borishga va`da bergan bo`lsangiz, tayin etilgan vaqtdan kechikmay boring. Biror voqea sababli borishingiz mumkin bo`lmay qolsa, taklif qilgan kishiga uzringizni etkazing.

Qarindosh-urug`laringiz, do`stlaringiz va boshqa tanish-bilishlaringizdan birining kasal bo`lib yotganidan xabar topsangiz, darhol uni ziyorat qilib, hol-ahvolini so`rang.

Kasal og`ir holda bo`lgani uchun shifokorlar uning yoniga ruxsat bermasalar, kasalning holini u erdagilardan so`rab bilish bilan qanoat qiling.

SHifokor ruxsati orqali kasal huzuriga kirsangiz, uning yonida ko`p o`tirmang, ko`ngliga og`ir keladigan qayg`uli so`zlarni so`zlamang.

Kasalning mumkin qadar shikoyatini tinglang, ko`nglini ko`taring, sabr etishga da`vat qiling, qo`rqitmang, tez kunda shifo topishini aytib, ko`ngliga umid baxsh eting.

### **Abu Rayhon Beruniy**

Bu voqeaning bo`lganiga ming yildan oshdi. Sakkiz-o`n yoshli do`mboqqina bola har kuni ertalab Amu sohili bo`ylab aylanib yurar, har xil o`t, giyoh va gullarni, shuningdek, meva, don, mayda toshlarni yig`ishga oshiqardi. Kunlarning birida yiqqan giyohlarini ko`tarib, mahallalaridagi hamma taniydigan tabibga keltirdi-da: «Bobo, bu o`tlarning oti nedur?» - deb so`radi. Tabib bobo jilmaydi, bolaning qiziqishidan xursand bolib: «Barakalla, bolam, qanday yaxshi ish qilibsiz. Qara-ya, bular dorivor o`tlar-giyohlar-ku», - dedi. SHu tariqa tabib bobo har xil giyohlar va donlarning nomini aytib berar va bolaning tabiatga qiziqishini yanada oshirar edi.

Bu bolakay bo`lajak ulug` olim Abu Rayhon Beruniy edi.

U 973-yil 4-sentabrda Xorazmda tug`ildi. erta etim qolgan bo`lsa ham, yaxshi odamlarning qo`lida tarbiyalandi. YOshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Ayniqsa, matematika, astronomiya, geografiya va tibbiyot fanlariga doir ko`p kitoblarni o`qib chiqdi. Qadimgi Xorazm tilini, turkiy, forsiy va arab tillarini puxta o`rganib oldi. Boshqa tillarni ham mashq qildi.

(149 so`z)

## **8-sinfga matnlar**

### **O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi**

O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2-iyul kuni tasdiqlandi.

O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o`ng tomonida bug`doy boshhoqlari, so`l tomonida ochilgan paxta chanoqlari suvrati tushirilgan chambardan iboratdir. Gerbning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz

tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarimoy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida himmat, oliyjanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan Xumo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O'zbekiston» so'zi bitilgan.

«Gerb» so'zining tarixi haqida qisqacha ma'lumot:

«Gerb» so'zi nemischa «erbo» so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Mashhur tarixchi Rashididdin Hamadoniy «Tanlangan tarixlar» nomli kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulkini o'g'illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo'lib in'om etgan.

(160 so'z)

## 9- sinfga matnlar

### Yil fasllari

Er quyosh atrofini bir yilda bir marta aylanib chiqadi. SHu davrda u o'z sirtini Quyoshga har xil vaziyatda «tutib» beradi. Quyosh osmonda baland ko'tarilganda, uning nurlari erga to'g'ri tushib, uni kuchliroq qizdiradi va Er yuzi issiq bo'ladi. Quyosh uncha baland ko'tarilmay, uning nurlari Erga qiyalab tushganda, Erni paypaslab o'tib ketgandek bo'ladi va Er yuzida sovuq turadi.

Qishdan keyin bahor, bahordan keyin yoz keladi. YOzning qoq o'rtasida, 22-iyunda, yozgi Quyosh turishi yuz beradi. endi yoz o'zining haqiqiy kuchini ko'rsatadi. Kunlar juda isiydi, bolalar suvdan chiqmay qolishadi. Biroq hademay, kuz yaqinlashib, uning ba'zi alomatlari paydo bo'la boshlaydi... Kunlar qisqarib, tunlar uzayadi. Asta-sekin daraxtlarning bargi sarg'ayib to'kila boshlaydi. Hademay daraxtlar yap-yalang'och bo'lib, shumshayib qoladi, tabiat qorni kuta boshlaydi. SHu tarzda fasllar almashina- almashina yil o'tadi. Azaldan bu jarayon takrorlangani-takrorlangan.

Lekin Er sharining hamma joyida ham yil fasllarining bir-biridan farqi unchalik sezilarli emas, shimoliy va janubiy qutblar atroflarida yil davomida sovuq: u erlarda Quyosh nurlari har doim er sirtini yalab o'tgandek tuyuladi va uni uncha qizdirmaydi.

(«Bolalar ensiklopediyasi»dan).

(170 so'z)

## 1.2.Bayon o'tkazish texnologiyasi

Bayon o'rta maktab ta'lim-tarbiya tizimida nutq o'stirish vositasi sifatida g'oyat muhim o'rin tutadi. U yozma ishning asosiy turlaridan biri



bo`lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o`quvchi tomonidan «o`z so`zi» — o`ziga xos uslubi asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo etadi.

Bayonning ta`lim-tarbiyaviy ahamiyati katta, U ona tili va adabiyotdan o`quvchining qanchalik bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`layotganini, nutq madaniyati taraqqiyoti darajasini ko`rsatsa, ikkinchi tomondan, matn mazmuni orqali axloqiy-estetik kamolotga etaklaydi, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdiradi, chinakam insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Bayon o`z xususiyatiga ko`ra diktant va inshodan farq qiladi. Bu uch tur yozma ishlardagi o`zaro umumiy o`xshashlik shundaki, ularni o`tkazishdan oldin o`qituvchi yozilishi lozim bo`lgan mavzuni, matnni aniqlaydi, o`qiydi, o`quvchilar esa o`qituvchi rahbarligida topshiriqni savodli yozish uchun harakat qiladilar.

Ularnig bir-biridan farqi shundaki, diktant matni o`qituvchi tomonidan aytib turib yozdiriladi. Bayonda esa matn o`qib berilganidan so`ng, o`quvchilar o`zlashtirganlarini xotira asosida yozishga kirishadilar.

Diktant o`quvchilarning grammatikadan qanchalik ongli bilim olganligini namoyish etadi, savodxonligini oshiradi, yozuv malakasini puxta egallashga undaydi.

Bayon va insho yozishda esa o`quvchilar yozma nutq malakalarini namoyish etadilar, o`zlarining tafakkur kuchi va iutq boyliklariga suyanadilar. Bu bayon bilan inshoning o`xshash tomonlaridir. Ular o`rtasidagi farq shundaki, agar bayon ta`limiy xarakterda bo`lsa, matn o`qib berilgach, o`quvchilar uning mazmunini og`zaki gapirib beradilar. SHundan keyingina yozishga kirishadilar. Inshoda esa o`quvchilarga matn o`qib berilmaydi, balki faqat mavzu tavsiya etiladi. Mavzu bo`yicha reja tuziladi va o`quvchilar shu reja bo`yicha o`z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalaydilar.

Ta`limiy bayonda oldin baen yozish talablari va qoidalari aytiladi, shu haqda ularga zarur bilim beriladi, keyin bayon yozish mashqi izchil davom ettiriladi. SHu sohada o`quvchilarning qanchalik bilim, ko`nikma va malakalarga ega

ekanliklarini tekshirish, sinash maqsadida vaqt-vaqti bilan sinov-tekshiruv (kontrol) bayoni o`tkaziladi.

Matn tanlashda o`quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olindi, ayniqsa matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qay darajada mosligiga e`tibor berildi.

### **Bayon tartibi**

O`quvchilarga bayon yozishni o`rgatishda o`qituvchidan uni muntazam suratda o`tkazib borish va bu sohada ma`lum bir tartibga amal qilish, ya`ni matnning o`quvchilarning yosh xususiyati va bilim saviyasiga mos bo`lishiga e`tibor berib, soddadan murakkabga, erkin, to`liq bayon etishdan matnga yaqinlashtirib bayon yozishga matnga yaqinlashtirib bayon yozishdan qisqartirib bayon yozishga, qisqartirib bayon yozishdan ijodiy bayon, ijodiy bayondan insho yozishga o`tiladi. Bunda og`zaki mashqlarni yozma ishdan oldin o`tkazib borishga ham e`tibor beriladi.

### **Matnga yaqinlashtirib bayon yozish**

Bunda muallifga xos so`z va iboralardan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun badiiy til xususiyati bilan ajralib turadigan asarlar tavsiya etiladi. Bunday matn yuzasidan bayon yozishdan oldin o`quvchilar muallifning har bir fikri, iborasi va uslubini aniq tushunib olishi va uni o`z bayonida qo`llashi zarur.

Matnga yaqinlashtirib yozilgan bayonda muallif fikrini o`quvchi o`z so`zi bilan bayon etishi mumkin, biroq eng muhimi muallif ko`llagan so`z va iboralardan yozma nutqda keng foydalanishi zarur. Bu o`quvchi lug`at boyligini oshiradi va faollashtiradi, iboralardan ijodiy foydalanishni o`rganadi. Buning uchun matn qajmi uncha katta bo`lmasligi kerak.

Qo`shimcha topshiriqli bayon, asosan, ona tili darslarida o`tkaziladi. Bunda biror grammatik qoida yuzasidai olingam bilimnn Ko`nikma va malakalarga aylantirish ko`zda tutiladi. Masalan, so`zlarning o`zaro bog`lanishi, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, gapda so`zlar tartibi, gap bo`laklari, gapning uyushgan bo`laklari, Ko`chirma va o`zlashtirma gap, sinonim so`zlar, stilistika, ritorik

go`roq gaplar, inkor gaplar va o`zbek tili tinish belgilariga oid qoidalar o`rganilgach, qo`shimcha topshiriq bayon o`tkazilishi zarur.

Saylanma bayonda matnning hammasi to`liq yozilmaydi, balki o`quvchilar bir nscha qisimli matnning xohlagan bir qismi yuzasi bayon yozadilar. Bunda o`quvchilarga erkinlik beriladi, ular yozuvlariga yoqqan, qiziqtirgan biror qismni saylab oladilar. Bu bayon turining ahamiyati shundaki, o`quvchilar keng hajmli mazkur asar xaqida yaxlit tasavvurga ega bo`ladilar, undagi qismlar oralidagi bog`lanishni tushunib etadilar va saylab olingan qism mazmuniga ongli, ijodiy munosabatda bo`ladilar, tafakkur va nutqlari tezroq rivojlanadi, mustaqylilik, saylab olish, tanlash ixtiyori ularni quvontiradi. Uni tashkil etishda o`qituvchi matnni bir marta ifodali o`qib beradi, reja tuzmasdan ham yozishga kirishish mumkin.

### **Qisqartirib, ixcham bayon yozish**

Qisqartirib, ixcham bayon yozishning ahamiyati shundaki, biror ertak va hikoyaning mazmunini umumlashtirib, asosiy g`oyani lo`nda ifodalash uchun o`quvchini faol va mustaqil fikrlashga undaydi, keng hajmli matn yuzasidan koispekt tuzish malakasini shakllantiradi.

Qisqartirib yozish malakasini hosil qilish uchun matn yuzasini savol shaklida reja tuza bilish muhim o`rin tutadi. Keyin ular savolga qisqa javob yozadilar. Qisqartirib, ixcham bayon yozishning asosiy talabi shuki, matnning asosiy mazmuniga zarar etkazmagan holda, ikkinchi darajali voqea-hodisalarni qisqartirib, g`oyat muhim ahamiyatga ega bo`lgan o`rinlar qoldiriladi. Qiqartirilgan bayonning murakkablik tomoni shundaki, o`quvchi muallifniig asosiy fikrini saqlagan Holda nihoyatda qisqa, ixcham yozishni o`rganadi. SHunga qaramay, mazkur bayon ustida uzluksiz ishlash zarur.

### **Ijodiy bayon**

Bunday bayonda o`quvchidan matn mazmuniga o`z munosabatini bildirish talab qilinadi. U bir necha shaklda o`t-kazilishi mumkin. Masalan, berilgan kichik hajmli matn mazmunini kengaytirib yozish, voqeaband she`rlar mazmunini hikoyalab yozish, dialoglarni umumlashtirib yozish, shaxsini o`zgartirib yozish

kabilar. Shu maqsadda mazkur bayonlar to'plamiga H.Olimjonning «Bunyodning dev bilan jangi», «Oygul bilan Baxtiyor» kabi she'riy asarlaridan parchalar berildi.

Shaxsini o'zgartirib yoziladigai bayonda birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs tomonidan bayon etiladigan fikr ifodalanadi. Shu sababli bayonning bu turi o'quvchilar bilan ko'proq mashq o'tkazishni, o'quvchilarning birinchi shaxsni uchinchi shaxsga aylantirish qoidalarini puxta o'zlashtirishlariga e'tibor berishni taqozo etadi.

Matnda dialoglar bo'lsa, ularni o'zgartirib bayon qilishda ko'-chirma va o'zlashtirma gaplar qoidasini yaxshi bilishga ahamiyat beriladi, buning uchun muntazam ravishda mashq o'tkazib boriladi. Masalan, ezuvchi Abdulla Qahhorning «Ug'ri» hikoyasidagi Qobil bobo bilan amin o'rtasida bo'lgan dialogni o'zlashtirma gapga aylantirib, quyidagi mazmunda bayon yozish mumkin:

«Qobil bobo aminga ro'para bo'lganda, u baqbaqasini osiltirib, Qobil boboni masxara qilib kulib: «Sigir yo'qoldimi?» - deb so'radi. Qobil bobo sigir emas, ola ho'kiz yo'qolganini aytdi. Amin yo'qolgan mol ho'kiz ekanligini eshitib, taajjublangandek bo'ldi. Qobil bobo bisotida bor-yo'g'i bitta ho'kizi bo'lganini bildirdi. Amin kulib, yo'qolmasdan ilgari bormidi, qanaqa ho'kiz edi, deb so'radi. Qobil bobo ola ho'kiz ekanligini aytdi. Amin Qobil bobodan ho'kizi yaxshi, yomonligini so'radi. Qobil bobo qo'sh mahalida ho'kizsiz qiynalib qolishini aytib, zorlandi. Amin yaxshi ho'kiz birov etaklasa keta bermasligini aytdi. Qobil bobo bisotida ho'kizdan boshqa hech narsasi yo'qiligini bildirdi va yig'ladi. Amin, o'zi qaytib kelmasmikan, birov olib ketsa, qay-tib kelaber, deb qo'yilmagan ekan-da, deb yig'lash kerak emasligini aytdi. Qobil bobo erga qarab qoldi. SHunda amin: qidirtirsakmikan, suyunchisi nima bo'ladi, deb so'rab, suyunchisidan chashna olib kelgani yoki olib kelmaganini bilmoqchi bo'ldi. Aminning *bu* gapi Qobil boboga, ho'kizingni ol, deganday tuyuldi. U suyunib, aminga pul berdi. Amin pulni olib, darrov pristavga xabar bermoqchi bo'ldi va pristavning o'zi chaqirtirishini aytdi.»

Bayon rivoyat tarzidagi she`riy asar yoki undan olingan parchalar bo`yicha ham yozdiriladi. Masalan, Hamid Olimjonning «Semurg` yoki Parizod va Bunyod» dostonidagi «Bunyodning dev bilan jangi» lavhasi bo`yicha bayon yozdirish mumkin. Bu turdagi bayonlarni yozish bir oz murakkab bo`lgani sababli, uni yozishdan oldin puxta tayyorgarlik ko`rish zarur. YA`ni avval Bunyodning dev bilan jangi tasvirlangan lavhalar (VII, XIV boblar) o`qiladi, ular ustida suhbat o`tkaziladi, mazmunini o`quvchilar so`zlab beradilar, ularning hikoyasini o`qituvchi to`ldiradi, so`ngra reja tuziladi, shundan keyin yozishga kirishiladi. Bu xildagi bayon erkin Voxidovning «Buyuk hayot tongi» dostoni asosida ham yozilishi mumkin.

Ixcham-bayon. Ixcham hajmli matn yuzasidan o`tkaziladigan yozish ishning turiga ixcham-bayon deyiladi. Bunday bayon V-IX sinflarning har birida darsning 8-20 minutida qiziqarli kichik mashg`ulot o`tkaziladi va bu mashg`ulot o`quvchini qiynamaydi» mazmuni tez o`zlashtiradi. Bu o`ziga xos yozma-aqliy mashq bo`lib, uning rejasi tuzilmaydi. Masalan, VIII sinfda qish fasli, aniqrog`i, yangi yil bayramig`a tayyorgarlik ko`rilayotgan paytda, biror darsda 10 minut ajratib, ixcham-bayon matni o`qib beriladi:

«Archa kirgan xonadonda bolalar ham, kattalar ham xursand. Archadan shifobaxsh, xushbo`y is chiqadi. U yashilligi bilan ko`zning vontirsa, xushbo`y isi uy havosini tozalaydi. Uy ichiga o`rnatilgan archadan barometr sifatida foydalansa ham bo`ladi. Agar xavo aynib, yog`in-sochin yaqinlashsa, archa shoxchalari bir-biriga yaqinlashadi. Agar shoxchalar yana bir-biridan uzoqlashib, joyiga qaytsa, havo ochilishidan darak beradi».

Mana bu kichik hajmli bayon matn mazmuni, ahamiyati o`quvchilar diqqatini tezda o`ziga jalb etadi. Demak, uy havosini yangilab turadi, yog`in-sochin yaqinlashishi yoki havo ochilishini unga qarab oldindan bilish mumkin ekan. Bolalar uni qiziqish, mehr bilan kuzatadilar, unga e`tibor kuchayadi, fikr tez ilg`ab olinadi va uni qog`ozga yozish osonroq bo`lgani uchun, ular bu ishga bajonu dil kirishadilar. O`qituvchi bu bayon turini bir kundayoq tekshirib,

baholaydi. Ko`pchilik, shubhasiz, ijobiy baho oladi va o`quvchilarda kattaroq hajmdagi bayonlarni yozish malakasi ortib boradi.

Ixcham-bayon matnining bir marta o`qib berilishining o`zi ham o`quvchilarning eshitish qobiliyatini oshirishga, e`tiborlilikka» xotirasini o`stirishga katta yordam beradi.

Maktabda bayon uch bosqichda o`tkaziladi:

1. Bayon yozishga tayyorgarlik, matn mazmunn ustida ishlash.
2. Uni yozish jarayoni.
3. O`quvchi yozgan bayon xatolarini tahlil etish, tuzatish, baholash xato ustida ishlash.

Bayon yozishga tayyorgarlik davrida sinf xarakteridan, o`qituvchi tematik rejasidan kelib chiqib, mavzu belgilash, matn bilan chuqur tanishish, maqsad va vazifalarni aniqlash, rejasini tuzish, lug`at ustida ishlash yo`llarini rejalashtirish va amalga oshirish - birinchi bosqichni o`z ichiga oladi.

Bayon yozishning ikkinchi bosqichida o`quvchining matn mazmunini qanchalik tushunib olganini bir, ikki savol bilan aniqlab olgach, bayonni tinch o`tirib yozish davom etadi, ish yozib bo`lingach, mustaqil o`qib chiqish uchun 3-5 minut vaqt beriladi, so`ngra yig`ib olinadi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, bayon yozishda lug`at ustida ishlashga etarli o`rin berilishi kerak. Masalai, 5- sinfda Abdulla Avloniyning. «Tulki bilan Qarg`a» ertagi bo`yicha bayon yozish uchun tubandagi tartibda lug`at ishi uyushtirilishi mumkin: o`qituvchi ertakni o`qitib, undagi «laylak» (laylak), «domi tazvirin» («hiyla tuzog`i), «mone`» (to`siq), «kor» (ish), «voqif» (xa-bardor), «chu» (kabi, singari), «pand» (aldamoq, firib bermoq), «edan» (etgan, qilgan), «hijron» (ayriliq) kabi so`zlarga izoh beradi. So`ngra matn mazmupini o`quvchilar hikoya qiladilar, suhbatda o`qituvchi yoziladigan bayonga yana qanday izoh berilishi zarurligi, nimalar tushunilmay qolganini so`raydi.

Bayonning mazmunli, tartibli, izchil yozilishida reja (plan) muhim o`rin tutadi. Shuning uchun I-IV sinflarda reja tuzish uzluksiz mashq qilinadi. V-IX sinflarda esa mustaqil ravishda reja tuzishga jiddiy e`tibor beriladi.

Bayon yozishning uchinchi bosqichi bayonni tahlil etish, tuzatish va baholashni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi o'quvchilar yozgan bayonlarni o'qib, o'rganib, baholaydi, sinfda tahlil qiladi. O'qituvchi bu ishlarpi puxta uyushtirish bilan bayoniing muvaffaqiyatli yozilishiga erishadi.

Ilg'or o'qituvchilar yozma ish - bayonni tanlangan matnning o'quvchi tomonidan qanchalik o'zlashtirilgani va bayon etilgaiiga, rejaning maqsadga muvofiqligi va reja asosida izchillikda, savodli, grammatika qoidalariga mos ravishda yozilishiga e'tibor beradilar.

V-IX sinflarda o'quvchilar yozgan bayonni tekshirishda, boshqa yozma ishlarni tekshirishdagi kabi, aniqlansak xatolar belgilar bilan ko'rsatib qo'yiladi: orfografik xato harfning tagiga bir to'g'ri (—) chiziq, ortiqcha yozilgan harf tagiga ikki (=) chiziq, so'z xato yozilgan yoki jumlada sintaktik aloqa buzilgan bo'lsa, bir uzun to'g'ri (\_\_\_\_\_) chiziq, uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ya'ni so'z takror yozilgan, so'zlar o'z o'rnida yozilmagan bo'lsa, tagiga to'lqinli (~) chiziq chiziladi; bir yoki bir necha jumlada uslubiy xatolar bo'lsa, daftarning hoshiyasiga qo'sh tik (//) chiziq ishorasi qo'yiladi; jumlarlar orasida aloqa bo'lmay, fikr tushunarli bo'lmasa, daftarning hoshiyasiga bir tik (/) chiziq ishorasi va savol alomati (?) qo'yiladi; yangi fikr yangi yo'ldan boshlanmagan bo'lsa, jumladagi birinchi so'z oldidan yangi yo'ldan boshlash ishorasi (2) qo'yiladi; so'z yoki gap qoldirilgan, fikrni tasdiqlaydigan misol (dalil) bo'lmasa, ildiz (/) ishorasi qo'yiladi; so'zlar bir-biriga qo'shib yozilgan bo'lsa, ayirish (U) ishorasi, qo'shib yozish lozim bo'lgan so'zlar ayirib yozilgan bo'lsa, ularning o'rtasiga birlashtirish (+) belgisi qo'yiladi.

Bu ishoralarni o'qituvchi ham, o'quvchilar ham xotirada saqlashi lozim. CHunki o'quvchilar shu ishoralar yordamida o'z xatolarini bilib oladilar va tuzatadilar.

Yozma ishlarni, jumladan, bayonni tekshirishda kim qaerda, qanday xatolarga yo'l qo'yganligini aniqlash, xatolarni xillarga bo'lib, ularni tuzatish yo'llarini o'quvchilarga ko'rsatish maktab tajribasida sinalgan usul hisoblanadi. Tahlil

jaraenida eng yaxshi yozilgan ishlardan ayrim o`rinlarni namuna sifatida o`qib eshittirish ham pedagogik va psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega bo`lgan usullardandir. Yozma ishi namuna qilib ko`rsatilgan o`quvchi ma`naviy tomondan mukofotlanganligini chuqur his qiladi, boshqa o`quvchilarda esa yozma ishga jiddiy munosabatda bo`lish mas`uliyati ortadi.

O`quvchilarning yozma ishiga, jumladan, yozgan bayoniga qo`yilgan baho asoslab berilishi lozim. Shundagina ular o`z xatolarini tushunadilar, kelajakda shunday kamchilikka yo`l qo`ymaslikka harakat qiladilar.

O`qituvchi yozma ishlarni tekshirganda, oldin ularning ijobiy tomonini umumiy baholaydi. Chunki yozma ishga umumiy baho berish o`quvchida ko`pchilik oldida javobgarlik tuyg`usini tarbiyalaydi.

Yuqoridagi ishlar, asosan, ta`limiy bayon bilan bog`liq mashg`ulotlardir. Bunday mashg`ulotlar davomida o`quvchilar sinov-tekshiruv bayoni yozishga tayyorlanadilar. Ta`limiy bayon har bir dars jarayonida o`tkazilishi, uni yozish jarayonida o`quvchilar tushuna olmagan so`zlarini o`qituvchidan so`rashlari mumkin. Ta`limiy bayon «Vatan adabiyoti» darslik-xrestomatiyasiga kiritilgan asarlar asosida o`tkazilishi ham mumkin. Lekin bunday ta`limiy bayonga ko`pincha «Bayonlar to`plami» asos qilib olinadi.

Tekshiruv-sinov bayoni o`quvchilarning nutq malakalarini aniqlash, sinash maqsadida o`quv yilining har bir choragida bir-ikki marta o`tkaziladi, buning uchun matn, albatta, o`quvchilarga tanish bo`lmagan, darsda tahlil qilinmagan asarlardan olinadi yoki o`quv qo`llanmasi, ya`ni «Bayonlar to`plami»dan tanlanadi.

Tekshiruv-sinov bayoni o`tkazish uchun matn o`qituvchi tomonidan bir, ikki marta ifodali o`qib beriladi. Matn mazmuni yuzasidan o`quvchilarda savollar bo`lmasa, berilgan reja asosida bayon yozishga kirishiladi. Bayon yozib bo`lingach, mustaqil o`qib chiqish uchun o`quvchilarga 3—5 minutgacha imkoniyat beriladi. Shundan so`ng ish yig`ib olinadi.

Tekshiruv-sinov bayoni o`qituvchi tomonidai adolatli tekshirilib, baholanadi. Agar xatolari har tomonlama o`rganilmay, shoshma-shosharlikka yo`l qo`yilsa,



baho yo oshirib yoki aksincha, nihoyatda kamaytirib qo'yilishiga sabab bo'ladi. Xullas, har bir o'quvchi olgan bahosining asosli ekanligiga iqror bo'lishi zarur.

### 1.3. Insho o'tkazish texnologiyasi

O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishda **inshoning** ahamiyati beqiyosdir. Insho til va adabiyot darslarida qo'llaniluvchi muhim yozma ish turlaridan sanaladi. Insho yozuvchi o'zining shaxsiy fikr va taassurotlarini inshoning mavzusi va materiali talab qilgan, iqtidori imkon bergan tartibda yozma ravishda izhor qiladi.

Insho yozishga o'rgatish - uzoq davom etuvchi murakkab jarayon. Bu jarayonning faqat eng muhim o'rinlarigagina to'xtalib o'tishni *lozim* topdik. Insho uchun 4 soat beriladi. Hajmi – 5-7 bet (qoralamasi bilan).

Insholar o'rta maktablarda, litsey, kollej va boshqa o'quv yurtlarida didaktik maqsadlariga ko'ra ikki turli bo'ladi:

- 1) ta'limiy insholar;
- 2) sinov insholari.

Janri va tematik xususiyatlariga ko'ra esa insholar uch turli bo'ladi:

- 1) adabiy;
- 2) adabiy-ijodiy;
- 3) ijodiy.

G'oyaviy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra insholarni besh turga bo'lish mumkin:

- 1) obzor;
- 2) monografik;
- 3) qiyosiy;
- 4) taqriz;
- 5) mulohaza.

**Ta'limiy insholar** sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, ijodiy fikr yuritishga, uni to'g'ri izhor qilishga qaratilgandir.

**Sinov insholari** o'quvchining insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash

uchun ma'lum mavzular o'tib bo'lingach, chorak yoki yil oxirida, imtihon va olimpiadalarda olinadi.

**Adabiy insholar** maktabning adabiyotdan o'quv dasturiga kirgan materiallarga asoslangan mavzular asosida yoziladi.

**Ijodiy insholar** tabiat, jamiyat, fan va madaniyat, san'at asari yoki tarixiy voqea asosidagi taassurotlar izhori bilan xarakterlanadi.

**Obzor insholar** adabiyotdagi u yoki bu masala atrofida fikr yuritishni taqozo qiladi. Shu masala bilan bog'liq ravishda qator asarlar yoki mualliflarga murojaat qilinadi. Umumiy tarzda xarakterli xususiyatlari ko'rsatiladi.

**Monografik insholar** bir yozuvchi, bir asar yoki bir adabiy qahramon haqidagi mavzuga bag'ishlangan bo'ladi.

**Qiyosiy insholar** ikki yoki bir nechta adabiy qahramonni, badiiy asar yoki badiiy obrazni cho'qishtirishga asoslanadi.

**Taqriz xarakteridagi insholar** badiiy asar haqida, tasviriy san'at, musiqa yoki boshqa xil san'at asarlari haqidagi taqriz shaklida yoziladi.

**Mulohaza tarzidagi inshoda** ma'lum masala bo'yicha o'quvchi yoki talabaning shaxsiy mulohazalari, boshqa mulohazalarga munosabati izhor qilinadi.

O'rta maktabda insholarning adabiy, adabiy-ijodiy, ijodiy-erkin turlari beriladi. Olimpiada va insho ko'riklarida esa taqriz va obzor xarakteridagi insho turlariga ham murojaat qilinadi.

Insho yozish - murakkab aqliy mehnat jarayoni. U o'quvchidan o'z fikrlarini dalillar vositasida mantiqan izchil, obrazli, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri izhor etishni talab qiladi. O'quvchini inshoga tayyorlash uchun til va adabiyot fani o'qituvchisi tomonidan uzoq yillar maqsadga yo'naltirilgan tarzda mashg'ulotlar tizimini tashkil etish talab qilinadi.

Og'zaki va yozma nutq o'stirish usullarining barchasi kompleks qo'llanilgandagina adabiyotdan yoziladigan inshoning yuksak saviyada bo'lishiga erishish mumkin.

### **Inshoga tayyorlanish va insho yozish jarayoni**

Imtihon inshosiga tayyorlanish borasida insho yozishning muhim *bash*

bosqichini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

1. Insho mavzusini tanlash.
2. Mavzuga doir materialni xotiraga jamlash.
3. Jamlangan material asosida puxta reja tuzish.
4. Rejaga muvofiq izchil ravishda insho yozish.
5. Yozilayotgan inshoni ham mantiqiy-uslubiy jihatdan, ham grammatik jihatdan nazorat qilib borish.

### **Insho mavzusini tanlash**

Bu bosqich inshoning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Odatda imtihondagi insho variantlarida uchta yoki to'rtta mavzu beriladi: bitta yoki ikkita adabiy, bitta adabiy-ijodiy, bitta yoki ikkita erkin (ijodiy-erkin) mavzu.

Puxta o'ylangan, har tomonlama fikrlab ko'rilgan mavzular insho yozishda muvaffaqiyat garovidir. Insho mavzusini tanlashda biz insho yozuvchilarga quyidagilarga amal qilishni tavsiya qilar edik:

Mavzu bo'yicha materialni qanchalik bilishini hisobga olish.

Mavzular orasidan o'zini ko'proq qiziqtirganini tanlash.

3. SHunga o'xshash mavzularda insho yozish tajribasiga tayanish. Har yilgi insho mavzulari yangicha va favqulodda bir tarzda tavsiya etilishi va e'lon qilinishini nazarda tutadigan bo'lsak, har xil mavzularda insho yozib mashq qilib borishning ahamiyati yana ham bo'rtib ko'rinadi. Turli mavzulardagi insholarni yoza olish uchun esa adabiyotdan nazariy materialni puxta o'rganish, qo'shimcha adabiyotlarni o'qib borish va ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalar bilan qiziqib, ular haqidagi o'z nuqtai nazari va qarashlariga ega bo'lish zarur.

### **Mavzuga doir materialni xotiraga jamlash**

Bu bosqichda mavzu doirasidagi xotirada saqlangan barcha fikrlar va dalillar yodga olinadi va tartiblashtiriladi. Yodga olingan materiallardan mavzuni yoritish uchun eng ahamiyatli va zarur bo'lganlari saralab chiqiladi.

Aytaylik, Zaynab va Omon obrazlarining ma'naviy qiyofasiga doir mavzu tanlangach, xotiraga H.Olimjonning tarjimai holi, «Zaynab va Omon» poemasi yozilish tarixi, poemadagi obrazlar, Zaynab obrazining va Omon

obrazining xarakterli xususiyatlari haqidagi materiallar keladi. Bularning barcha tafsilotlari insho uchun zarur bo`lmaydi. Oxirgisinigina chuqurroq eslash va mavzuga mos g'oyani ochish uchun tartiblashtirish kerak bo`ladi. Samimiyat, insoniy mehr-muhabbat, eskilik sarqitlariga murosasizlik, mehnatsevarlik, optimizm kabi insoniy fazilatlarning Zaynab va Omon obrazlari orqali ifodalanganini ko`rsatib beruvchi tafsilotlarni qay tarzda bayon qilish rejasi tuziladi.

### **R e j a tuzish**

Xotiraga jamlangan va tartiblashtirilgan material asosida puxta reja tuzish inshoning mantiqiy va g'oyaviy saviyasining yuqori bo`lishini ta'minlaydi.

Insho mavzusining o`zi haqidagina mulohaza yuritib, fikrlarni ixcham va lo`nda holda qisqa bayon qilish rejalashtirilganda sodda reja tuziladi. Insho yozuvchi mavzuning ichki g'oyaviy yo`nalishidan kelib chiqibgina fikrlar izhor qiladi va oz sonli dalillarga tayanadi. Odatda, sodda reja 5-9- sinf o`quvchilarining insholariga xos bo`ladi.

Murakkab reja mavzu yuzasidan atroflicha bilimga ega bo`lgan, mavzuning bir necha qirralarini ko`ra bilgan, keng ko`lamda yorita oladigan kishi tomonidan tuziladi.

«...Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!» mavzusi yuzasidan sodda va murakkab rejani ko`rib chiqaylik.

### **Sodda reja:**

#### **Reja**

1. O`zbekiston – mustaqil davlat.
2. Shu kunlarni orzu qilgandi Cho`lpon.
3. Yashna, yuksal, ona diyorim!

### **8-9 sinf uchun insho mavzularidan namunalar:**

#### 8-sinf

- 1. Ustoz – otangdek ulug'
- 2. "O`lsam ayrilmasman quchoqlaringdan"(O.Sharafiddinov haqida)

- 3. Mening orzularim

9-sinf

- 1. Bilim-baxt keltiradi (Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari haqida).
- 2. Kelajak mening tasavvurimda.
- 3. Ona tilim, sen o`zbekning g’ururi.

### **Murakkab reja:**

#### **Reja**

1. Kirish: Naqadar shirin so`z - hurlik, erkinlik!

11. Asosiy qism:

1. Bahorni kuylamoq - erkni kuylamoq.
2. Cho`lpon ijodida xotin-qizlar ozodligi mavzusi.
3. Cho`lpon - isyonkor shoir.

111. Xulosa: Cho`lponning yangroq sozi jaranglayversin!

Insho rejasi bndlari mavzuni ochish uchun xizmat qilmog’i zarur.

**Kirish.** Kirish insho mavzusini yoritishni boshlash oldidagi debocha hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy mavzuga o`tish uchun ko`prik vazifasini o`taydi. Kirish insho yozuvchining bilimi va ixtiyoriga qarab turlicha bo`lishi mumkin:

- a) tarixiy;
- b) biografik;
- v) ommabop;
- g) chog’ishtirma;
- d) favqulodda;
- s) lirik chekinishli va h.k.

Muallif mavzuni yoritishga qay biri qulay kompozitsion uyg’unlik va g’oyaviy mutanosiblik tug’diradi deb topsa, o`shanday kirish qilishi mumkin.

Ba’zan insho yozuvchi aralash kirishdan yoki ma’lum tartibda bir necha xil kirishdan foydalanishi mumkin. Bu holda kirish qismining bndlari uchtagacha

bo`lishi mumkin. Yuqoridagi mavzuga tatbiqan misol keltiradigan bo`lsak:

**Kirish:**

1. O`zbek adabiyoti asrimiz boshida.
2. She`riyat osmonida yorqin yulduz.
3. Naqadar shirin so`z - hurlik, erkinlik.

Kirish qismining 1-bandi tarixiy kirish, 2-bandi biografik kirish, 3-bandi chog`ishtirma kirishga misol bo`la oladi.

**Asosiy qism.** Asosiy qism bndlari qo`yilgan mavzudan chiqib ketmasligi lozim. Asosiy qismning har bir bandi mantiqan mavzuni yoritish uchun xizmat qilmog`i kerak.

Asosiy qismdagi reja bndlari 3 tadan 11 tagacha bo`lishi mumkin. Insho muallifi asosiy qism bndlarini ma`lum izchillikda tuzgani ma`qul. Bu izchillik mavzuviy, g`oyaviy, xronologik xarakterdagi yoki tahlil tartibidagi izchillik bo`lishi lozim. Insho shaxsiy fikrlarni o`z uslubida izhor qilishni taqozo qiluvchi yozma ish turi bo`lganligi uchun ham muallifning tasavvuridagi o`ziga xos uslub va izchillik yaxshi samara berishi mumkin.

**Insho mavzusi: «Alpomish» dostonida qahramonlik tasviri**

*Reja*

I. Kirish:

1. «Alpomish» - o`zbek xalq og`zaki ijodiyoti xazinasining nodir durdonasi.
2. Umuminsoniy qadriyatlarni ulug`lash– dostonning asosiy g`oyasi.

II. Asosiy qism:

1. Mardlik va kurashchanlik - dostondagi bosh masala.
2. Alpomish - jasur va jur`atli pahlavon.
3. Alpomish - xalq baxti, yurt osoyishtaligi uchun kurashuvchi qahramon.
4. Muhabbat va diyonat yo`lida fidoyilik - doston qahramonlariga xos fazilatlar.

### III. Xulosa:

1. Alpomish - xalqimizning sevimli qahramoni.
2. Mardlik - mangulik.

**Xulosa.** Xulosa - inshoning intihosi. Insho xulosasi inshoning asosiy qismidagi izchil fikr rivojining yakuni yoki o`sha fikrlar keltirib chiqaradigan mantiqiy natija xarakterida bo`ladi. Xulosa-yakun yoki xulosa-natija. Ba`zan har ikki xil xulosani ketma-ket birga berish mumkin. O.Madaevning «Insho qanday yoziladi?» qo`llanmasidan keltirilgan insho rejasidagi xulosa bunga yorqin misol bo`la oladi.

Mavzu: **Abdulla Qahhor - hikoyanavis**

#### I. Kirish:

1. Hikoya o`zbek adabiyotidagi etakchi janrlardan biridir.
2. A.Qahhor ijodining o`zbek hikoyachiligida tutgan o`rni.

#### II. Asosiy qism:

1. Yozuvchi hikoyalarining tematikasi.
2. o`tmish hayot tasviri A.Qahhor hikoyalarining asosiy mavzularidandir.
3. A.Qahhorning sovet davri hayoti aks etgan hikoyalari haqida ma`lumot.
4. YOzuvchining obraz yaratish mahorati.
5. A. Qahhor hikoyalarining o`ziga xos xususiyatlari.

#### III. Xulosa:

- A.Qahhor - mohir so`z ustasi.
- A.Qahhor hikoyalarini sevib o`qiyman.

Ko`rinib turganidek, xulosaning birinchi bandi xulosa-yakun, ikkinchi bandi xulosa-natija tarzidadir.

### **Insho yozish**

Insho yozishda rejaga amal qilinadi. Har bir fikr puxta o`ylab, so`ng

qog'ozga tushiriladi. Fikrlarni dalillash boshqa manbalarga murojaat qilishni taqozo qiladi. Agar bu dalil aynan keltirilsa, «tsitata» yoki «iqtibos» deyiladi. Nasriy tsitatalar misol tariqasida keltirilsa, qo'shtirnoq orasiga olinadi. She'riy matn holatidagi misollar esa qo'shtirnoq orasiga olinmaydi, she'riy ustun tarzida beriladi.

O'quvchilar maktabda janriga ko'ra rivoya insho, muhokama insho, tasviriy insho kabi insho turlariga oid yozma ishlar bajarishadi.

**Rivoya inshoda** voqeani izchil bayon qilish jarayonida rivoya elementi qo'llaniladi. Rivoya inshoda shaxsan boshdan kechirilgan, eshitilgan yoki o'qilgan, rasmda ko'rilgan voqealar material bo'lib xizmat qiladi. Tabiiyki, fikr izhori hikoya tarzida ketadi.

**Muhokama inshoda** biror munozarali masala yuzasidan o'quvchining fikri yoritiladi. Bunday inshoda berilgan fikrni dalillash kerak bo'ladi. Bunday inshoda fikr bayonida mantiqiy izchillikka alohida e'tibor qilinadi.

**Tasviriy inshoda** o'quvchi oddiy va badiiy tasvirdan foydalanib ma'lum bir predmet yoki manzarani kishi ko'z oldida gavdalantirib berishi zarur. Kuzatuvchanlik, o'xshatish va mug'oyasa asosidagi bayon zavqlantirishga, go'zallik va ezgulikni his qildirishga, hayajonlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ba'zan inshoni maktub (noma) uslubida ham yozish mumkin. Bunda rivoya, muhokama va tasvirdan zaruratga ko'ra, maktubning ijodiy xarakteri talab qilgan darajada almashlab foydalanish ham mumkin.

Berilgan rasimga qarab ijodiy insho yozishda yuqorida sanab o'tilgan usullarning xohlagan birini qo'llash mumkin. Insho uchun tasviriy san'at asari tanlanganda rasmda ifodalangan syujetga, bo'yoqlarning yorqinligi va ta'sirchanligiga, o'quvchining yoshi, bilimlar ko'lamiga mos kelishiga ahamiyat beriladi.

5-9- sinf o'quvchilariga tanlangan rasm sodda syujetli, mazmuni oson tushuniladigan, ranglar tabiiy qo'llanilgan, chuqur ramziylikdan xoli bo'lishi kerak.

Maxsus ta'lim yo'nalishidagilar uchun ramziy ma'nolar, ranglar, murakkab



psixologik syujetga ega bo`lgan rasmlar ham tanlanishi mumkin.

Xullas, insho yozish jarayonida o`quvchi ijodiy ish bajaradi, o`z fikr va kechinmalarini, taassurot va mulohazalarini izhor qiladi. Bunda ijodkorga qat'iy chegara qo`yilmaydi. Mavzu mohiyatidan og`ish, hajmi chegarasidan chiqib ketish, tafsilotlarga berilish yoki, aksincha, o`ta umumiy tarzda fikr yuritish kabi nuqsonlarga yo`l qo`yilmaydi.

### **Yozilayotgan inshoni nazorat qilish**

Insho muallifi ishning mazmunini hamda grammatik jihatlarini hamisha nazorat qilib bormog`i kerak. Mantiqiy, uslubiy, imloviy, ishoraviy, kompozitsion jihatlar diqqat-e`tiborda turgandagina insho talabga javob berishi mumkin.

Insho yozish paytida mavzu doirasiga kiruvchi davr haqidagi tasavvur muallifni tark etmasligi kerak. Yo`qsa, u sanalarni, atama va joy nomlarini chalkashtirib yuborishi mumkin. O`ar bir jumlaning yozayotganda ayni shu satrlarga mos keluvchi grammatik qoidalarni yodga oladi. Jumlaning shu qoidaga mos yozilgan-yozilmaganini tekshiradi:

- yangi fikrning yangi abzatsdan yozilishi,
- atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi;
- uyushiq bo`laklar orasiga vergul` qo`yilishi;
- ko`chirma gapni qo`shtirnoq orasiga olish;
- so`zlarning imlosini yodga olish va h.k.

### **1.4. Diktant, bayon, inshoni baholash mezonlari**

O`quvchilar tomonidan yozilgan yozma ishlarning minimal hajmi quyidagicha, ya`ni:

- Diktantdagi so`zlar hajmi 5-sinfda 100-110 tagacha, 6-sinfda 110-120 tagacha bo`ladi. Diktant yozish uchun 1 soat (60 minut) vaqt belgilanadi.
- Bayon o`tkazishda o`quvchilar matnni qanday tushunganliklari, o`z fikr va tushunchalarini qanday ifodalaganlari, nutq malakasi va savodxonligi sinab ko`riladi.

- Matndagi soʻzlar miqdori 7-sinf uchun 250-300 soʻzdan iborat boʻlib, oʻquvchi unga ijodiy, mustaqil fikrlab, 2-2,5 bet hajmida yozadi. Bayon yozish vaqti – 2 soat (120 minut).
- Diktant va bayon uchun Vatan, doʻstlik, ota-onaga hurmat, ustozlar, tabiat, kitob, odob, burch va h.k. mavzulardagi matnlar qamrab olinishi mumkin.
- 8-sinfda inshoning hajmi 2,5-3 bet, 9-sinfda esa 3,5-4 betdan kam boʻlmasligi talab qilinadi. 8-9-sinflarda insho uchun 2 soat (120 minut) ajratiladi
- Insho uchun 8,9-sinf oʻquv dasturida belgilangan mavzular, shuningdek, milliy qadriyatlar, asar qahramonlari, jahon ilm-faniga munosib hissa qoʻshgan buyuk allomalar, oʻqilgan kitoblar, Vatan, ozodlik, mustaqillik uchun kurashgan qahramonlar haqida va boshqa mavzular boʻyicha tanlanishi mumkin.

Oʻquvchilarning yozma nutqini shakllantirish va fikr doirasini kengaytirish uchun **bayon**, ayniqsa, ijodiy bayonlar oʻtkazish maqsadga muvofiqdir. Maktab amaliyotida yozma ishning bu turidan koʻp foydalaniladi. Bayonlar badiiy asarni yoki berilgan matnni yozma ravishda qayta hikoyalash xarakteridagi yozma ish turidir. Bayonlardagi matnni qayta bayon qilish toʻliq bayon, qisqartirilgan bayon, kengaytirilgan bayon tarzida oʻtkaziladi. Har uchala xil bayonning ham maqsadi bogʻlanishli nutq oʻstirishdir. Lekin kengaytirilgan bayonning inshoga tayyorlashdagi ahamiyati katta. U oʻquvchining fikrlash doirasini, fantaziyasi va bayon uslubini oʻstiradi va takomillashtiradi.

Bayonni baholash uchun quyidagicha meʼyor va mezonni joriy qilishni maʼqul koʻrdik. Bayon vaqti 2 soat.

Matndagi soʻzlar miqdori:

5-sinf uchun 100-150;

6-sinf uchun 150-200;

7-sinf 250-300;

8-sinf uchun 300-350;

9- sinf uchun 400-450 va undan ortiq boʻlishi

ham mumkin.

#### **«5» baho:**

- 1) mavzu rejaga muvofiq bo`lsa;
- 2) asar voqealari to`g`ri bayon qilingan bo`lsa;
- 3) bayon mantiqli va muntazam bo`lsa;
- 4) so`z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo`lsa;
- 5) mazmun va ifodada nuqson bo`lmasa;
- 6) savodxonlikda qo`pol bo`lmagan bitta imlo yoki ishora xatosi bo`lsa; uslubiy xato bo`lmasa.

#### **«4» baho:**

- 1) Mavzu reja asosida yozilib, to`liq yoritilsa, lekin kichik nuqsonlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa;
- 2) fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo`lsa;
- 3) so`z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo`lsa; mazmun va ifodada 1-2 nuqsonga yo`l qo`yilgan bo`lsa;
- 4) savodxonlikda 2 ta imlo yoki ishorat va 1 ta uslubiy xato mavjud bo`lsa; umumiy xatolar soni 4 tadan oshmasa.

#### **«3» baho:**

- 1) mavzu to`liq yoritilmagan bo`lsa, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo`lsa;
- 2) aniq voqealarga izoh berishda nuqsonlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa;
- 3) so`z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa;
- 4) savodxonlikda 3 tagacha imlo va ishorat hamda 3 ta uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.

#### **«2» baho:**

Asar mazmunini yoritishda nuqsonlar ko`p bo`lsa, ish rejaga mos bo`lmasa, fikr bayonida nuqsonlar bo`lsa; so`z boyligi juda kam bo`lsa, mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, savodxonlikda 7 ta imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.

Bayonga 2 ta baho qo`yiladi: 1 - mazmuniga: 2 – savodxonligiga

## **Inshoni tekshirish va baholash**

Yozilgan insho mutaxassis muallim tomonidan o`qib, o`rganib chiqiladi, so`ng tekshirib, baholanadi. Insho o`qilganda, ishning matnida mavzuning qay darajada ochilganligiga, fikrlar va dalillarning berilish uslubiga alohida e`tibor qilinadi. Shundan so`ng inshoni grammatik jihatdan tekshirish boshlanadi.

O`rta maktablarning yuqori sinflarida, tayyorlov bo`limlarida va turli o`quv yurtlarida inshoni tekshirish paytida ishning xato joyi tagiga chizish hamda daftar hoshiyasiga belgilar chiqarish yo`li bilan ko`rsatiladi va hisobga olinadi. Xatolarni ko`rsatish uchun imlo xatosi ostiga ikki (=) chiziq, tinish belgilardagi xato ostiga bir (-) chiziq, uslubiy xatolar ostiga to`lqinli (~) chiziq chiziladi. Bu xatolarni hisoblash uchun esa daftar hoshiyasiga lotin yozuvidagi harflardan quyidagilar shartli belgi sifatida chiqariladi:

/ (shtrix) - imlo xatosini bildirada.

V (ve) - tinish belgisidagi xatoni bildiradi.

W (dubl ve) - uslubiy xatoni bildiradi.

Z (zet) – abzasni, ba`zan matndagi behuda bo`sh qoldirilgan yoki noo`rin band qilingan satrlarni bildiradi. SHuningdek, xatolarni ko`rsatishda ayirib yozish kerakligini ko`rsatuvchi va qo`shib yozish kerakligini ko`rsatuvchi ishoralar ham qo`llaniladi.

Inshoni tekshirishda chiroyli jumla, juda o`rnida keltirilgan dalil ro`parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida undov belgisi (!) qo`yish bilan tahsin yoki maqtoovni; no`noq, tushunarsiz, noto`g`ri jumlar, noo`rin dalillar ro`parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichidagi so`roq belgisi (?) qo`yish bilan e`tiroz yoki tushunarsizlikni bildirish mumkin. Xatolar ko`rsatilib, belgilab chiqilgandan so`ng xatolar turlarga xillanib, ularning soni ko`rsatiladi. Baholashda uch turdagi xatolar hal qiluvchi rol` o`ynaydi:

1) imlo (orfografik) xatolar;

2) tinish ishoralaridagi (punktuatsion) xatolar;

3) uslubiy (stilistik) xatolar. Yaqin paytlargacha bu xatolarni qisqartirib orf., punkt., stil. tarzida tasnif qilinardi. Hozirda bu xatolarni tasnifda «imloviy»,

«ishoraviy», «uslubiy» tarzida yozish kerak deb o`ylaymiz. Tasnifdagi xatolar soni va insho mavzusining yoritilishi hisobga olinib, insho baholanadi.

Inshoni baholash yozma ishning bu turi murakkab aqliy mehnat jarayoni bo`lganligi uchun ham ko`p tortishuvlarga sabab bo`lib kelgan. Ba`zi o`qituvchilar inshoni ikkita baho bilan baholash shart deb qaraydilar. Ularning fikricha, birinchi baho mazmuni uchun qo`yiladi, ikkinchi baho imlosi uchun qo`yiladi. Balki bunday baholash o`quvchilar va o`qituvchilar uchun qulayliklar tug`dirar, biroq ta`lim va savodxonlik samaradorligiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. YOzma nutqni o`stirish, uni takomillashtirish masalasi ham mazmun, ham imlo jihatdan birdek to`g`ri va barkamol ish turlarini bajarishga erishishni taqozo qiladi.

Hozirgi kunda K.Nazarovning respublika jamoatchiligiga havola qilgan «Inshoni baholash mezon» muhim qo`llanma hisoblanadi. Bizning tavsiyalarimiz ana shu qo`llanmaga tayangan holda yuzaga kelgan.

O`rta maktab dasturini, normativ grammatika talablarini yaxshi bilgan, baholash mezonidan xabardor bo`lgan mutaxassis muallimgina inshoni talab darajasida tekshirishi va baholashi mumkin.

Boshqa turdagi yozma ishlardagidek, inshoda ham imlo xatolari miqdori muhim mezon sanaladi.

<b>№</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Ball</b>	<b>Savodxonligi</b>	<b>Ball</b>
1.	Mavzuga mos mazmunli reja tuzilgan bo`lsa, insho rejaga muvofiq yozilib, mantiqan izchil, so`z boyligi, ifoda qurilishi, badiiy matn yaratish qonun-qoidalariga monand, mustaqil ijodiy fikrlab yozilgan fikrlari yorqin, asosli bo`lsa	20	Inshoda hech qanday imlo va uslubiy xatolarga yo`l qo`yilmagan bo`lsa	20
2.	Mavzu reja asosida to`liq yoritilib, yuqoridagi talablarga javob bersa, rejaning biror bandi to`liq yoritilmagan bo`lsa	19-18	Bitta imlo xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa	19

3.	Insho rejasi mavzuga mos, mustaqil va ijodiy tuzilgan bo`lsa, matn yaratishda asosan yuqoridagi talablarga amal qilingan bo`lsa, biroq fikrlar bog`liqligi biroz buzilgan bo`lsa	17-16	Bitta uslubiy, bitta imlo, ikkita tinish belgida xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa	18
4.	Insho asosan yuqoridagi talablarga javob bersa, biroq uning mazmunida, reja tuzilishida nomukammallik uchrasa, reja bandlari mavzuga to`liq monand bo`lmasa, fikrlar bayonida izchillik etishmasa.	15-14	Ikkita uslubiy, ikkita imlo, ikkita tinish belgida xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	17
5.	Insho mavzusi asosan yoritilsa, reja tuzilishida va mavzuni yoritishda izchillik etishmasa, fikrlar va xulosalarni asoslashda nuqsonlar bo`lsa	13-12	Uchta uslubiy, uchta imlo va uchta tinish belgida xatolar mavjud bo`lsa	16
6.	Insho rejasida va matnni yoritishda sayozlik sezilsa, fikrlar izchil bo`lmasa, mavzudan chetga chiqish holat uchrasa	11-10	To`rtta uslubiy, uchta imlo va uchta tinish belgida xatolar mavjud bo`lsa	15
7.	Insho rejasi sayoz tuzilgan bo`lib, mavzuni yoritishda so`z boyligi, ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa	9-8	To`rtta uslubiy, to`rtta imlo va to`rtta tinish belgida xatolar mavjud bo`lsa	14
8.	Insho rejasi mavzuga mos bo`lmasa mavzudan chetga chiqish kabi nuqsonlar uchrasa, inshoni yoritishda takrorlar va tarqoq fikrlar mavjud bo`lsa	7-6	Beshta uslubiy, beshta imlo va beshta tinish belgida xatolar mavjud bo`lsa	13

9.	Insho mavzusi yoritilmagan bo`lsa, reja bndlari mazmunsiz bo`lsa, o`quvchi mavzuni tushunmaganligi, fanni zaif bilishi sezilib tursa, fikrlar asoslanmagan, xulosalanmagan bo`lsa	5-4	Oltita uslubiy, oltita imlo va shuncha tinish belgida xatolarga yo`l qo`ygan bo`lsa	12
----	---	-----	---	----

Insho mazmunidagi nuqson va xatolar soni hamda turiga qarab ishni baholash shu tariqa 0 balgacha davom ettiriladi.

O`zbekiston Respublikasi umumiy o`rta ta`lim maktablari o`quvchilarining  
umumta`lim fanlari bo`yicha Respublika bilimlar sinovini o`tkazish  
bo`yicha baholash mezonlari

Ona tili va adabiyot fanidan Respublika bilimlar sinovi umumta`lim maktablarining 5-9 sinflarida birinchi (ta`lim muassasasi), ikkinchi (tuman), uchinchi (viloyat), to`rtinchi (Respublika) bosqichda o`tkaziladi. Bilimlar sinovining birinchi, ikkinchi bosqichlari yozma ish, uchinchi, to`rtinchi bosqichi yozma ish va suhbat shaklida o`tkaziladi.

O`quvchilar sinovning 1,2-bosqichlarida 5, 6-sinflarda diktant, 7-sinfda bayon, 8,9-sinfda insho yozadilar. YOzma ishlar maksimal 100 ball bilan baholanadi. Mazkur bosqichlarda o`quvchining ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda savodxonligi sinovdan o`tkaziladi. YOzma ishlar uchun mavzular ko`p variantlilik asosida tayyorlanadi. Har bir variantda 3 tadan mavzu taqdim etiladi. Bu variantlardan bittasi tanlab olinadi. Tanlangan o`sha bitta mavzu asosida diktant, bayon,insho yozadilar. YOzma ish mavzulari o`quvchilarni ijodiy izlanishga, shaxsiy fikr-mulohaza bildirishga, bir xil mavzudagi bir necha manbalarda ifodalangan fikrlardan umumlashma xulosalar chiqara olish va uni yoza bilishga ko`maklashuviga qaratilishi lozim.

Izoh: O`quvchi yozma ishni (diktant, ijodiy bayon va inshoda) mutlaqo xatosiz yozib, ammo xusnixati talabga javob bermasa natija 1 ballga pasayadi.

### Bayonni baholash mezonlari:

T/r	Bilim, ko`nikma, malakalar	ball
1.	Reja mavzuga muvofiq bo`lsa, asar voqeasi to`g`ri bayon qilingan bo`lsa, bayon mantiqli va izchil bo`lsa, so`z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo`lsa, savodxonlikda qo`pol bo`lmagan 1 ta imlo va ikkita tinish belgida xatosi bo`lsa, uslubiy xato bo`lmasa.	100-91
2.	Matn reja asosida yoritilib, lekin kichik nuqsonlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, fikr bayonida izchillik qisman buzilsa, so`z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo`lsa, savodxonlikda 2 imlo, 2 tinish belgida va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo`lsa	90-81
3.	Mavzu to`liq yoritilmagan bo`lsa, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo`lsa; voqealar izohida nuqsonlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, so`z boyligi, ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha tinish belgi, 3 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	80-71
4.	Ish rejaga mos bo`lmasa, fikr bayoni va qurilishida buzilishlar bo`lsa, fikrlar bir-biriga bog`lanmasa, so`z boyligi juda kambag`al bo`lsa; mazmun va ifodada savodxonlikda 5 tagacha imlo, 5 tagacha tinish belgida, 5 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	70-61
5	Ishga reja tuzilmagan bo`lsa, fikr bayoni va qurilishida qo`pol buzilishlar bo`lsa; mazmun va ifodada savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha tinish belgida, 7 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	60-51
6	Ishga reja tuzilmagan bo`lsa, fikr bayoni va qurilishida qo`pol buzilishlar bo`lsa, fikrlar bir-biriga bog`lanmasa; mazmun va ifodada savodxonlikda 9-10 tagacha imlo, 9-10 tagacha tinish belgida, 9-10 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	50-41
7	Ishga reja tuzilmagan bo`lsa, fikr bayoni va qurilishida qo`pol buzilishlar bo`lsa, fikrlar bir-biriga bog`lanmasa so`z boyligi kashaq bo`lsa; mazmun va ifodada savodxonlikda 11-14 tagacha imlo, 11-14 tagacha tinish belgida, 11-14 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	40-31
8	Bayon sayoz yozilib, yuqoridagi talablarga umuman javob bermasa.	30 balldan past



### Insho quyidagi mezonlar asosida baholanadi

tr	Mazmuni	1,2 tur ballari	3,4 tur ballari
1.	Reja ijodiy, izchil, mavzuga mos tuzilgan bo`lsa va matn mazmunini o`zida to`la-to`kis ravishda namoyon qilib tursa	5	5
2.	Mavzuga mos keladigan muqaddima so`z (epigraf) to`g`ri tanlangan bo`lsa	2	2
3.	Mavzu to`g`ri, to`liq va batafsil yoritilgan bo`lsa- 2-3 ball; badiiy matn yaratish qonun-qoidalariga monand bo`lsa –2-3 ball; mustaqil ijodiy fikrlab yozilgan bo`lsa –2-3 ball; fikrlari yorqin, asosli bo`lsa-2 ball; mavzu mazmuni adabiy til me`yorlariga amal qilgan holda yoritilsa- 2 bo`lsa	25	20
4.	Mavzuga mos tsitata (ko`chirma) larni to`g`ri tanlasa	2	1
5.	Reja bandlari mazmuni yoritilgan bo`lsa	5	4
6.	Matnda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan (hikmatli so`z, maqol va va h) o`rinli foydalangan bo`lsa	2	2
7.	Matn mavzu bo`yicha umumiy xulosalangan bo`lsa	5	4
8.	Mavzu mazmuni hozirgi davr bilan bog`langan bo`lsa	2	1
9.	Insho husnixat bilan yozilgan bo`lsa	2	1
	Jami:	50 ball	40 ball

t-r	Savodxonligi	1,2 tur ballari	3,4 tur ballari
1	Inshoda hech qanday grammatik xato bo`lmasa	50	40
2	1 ta imlo, 1 ta ishora xatosi bo`lsa	49	39
3	1 ta qo`pol bo`lmagan uslubiy, 1 ta imlo, 1ta ishora xatoga	48	38
4	1 ta qo`pol bo`lmagan uslubiy, 2 ta imlo, 2 ta ishora xatosi bo`lsa	47	37
5	2 ta qo`pol bo`lmagan uslubiy, 3 ta imlo, 3 ta ishora xatoga	46	36
6	2 ta uslubiy, 4 ta imlo, 4 ta ishora xatosi bo`lsa	45	35
7	3 ta qo`pol bo`lmagan uslubiy, 5 ta imlo, 5 ta ishora xatosi bo`lsa	44	34
8	3 uslubiy, 5 ta imlo, 5ta ishora xatosi bo`lsa	43	33
9	4 ta uslubiy, 6 ta imlo, 6 ta ishora xatosi bo`lsa	42	32
10	5 ta uslubiy, 7 ta imlo, 7ta ishora xatosi bo`lsa	41	31

11	6 ta uslubiy, 8 ta imlo, 8 ta ishora xatosi bo`lsa	40	30
12	7 ta uslubiy, 9 ta imlo, 9 ta ishora xatosi bo`lsa	39	29
13	8 ta uslubiy, 10 ta imlo, 10 ta ishora xatosi bo`lsa	38	28
14	Inshoda 9 ta uslubiy, 11 ta imlo, 11 ta ishora xatosi bo`lsa	37	27
15	Inshoda 10 ta uslubiy, 12 ta imlo, 12 ta ishora xatosi bo`lsa	36	26
16	Inshoda 10 dan ortiq uslubiy, 13 ta imlo, 13 ta ishora xatoga	35	25
17	Inshoda 10 dan ortiq uslubiy, 14 ta imlo, 14 ta ishora xatoga	34	24
18	Inshoda 10 dan ortiq uslubiy, 15 ta imlo, 15 ta ishora xatosi	33	23
19	Inshoda 10 dan ortiq uslubiy, 16 ta imlo, 16 ta ishora xatoga	32	22
20	Inshoda 10 dan ortiq uslubiy, 17 ta imlo, 17 ta ishora xatoga	31	21
21	Inshoda 10 dan ortiq uslubiy, 18 ta imlo, 18 ta ishora xatoga	30	20

- Izoh: Ba`zan o`quvchining yozma ishidagi xatolar miqdori yuqoridagi mezonga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda 2 ta ishoraviy xatoni 1 ta imlo xato o`rnida, 2 yoki 3 ta imlo xatoni 1 ta uslubiy xato sifatida baholash mumkin. Xatolarning (uslubiy, imlo, ishora) har biri soni jami 10 tadan oshsa, o`quvchining bahosi o`z-o`zidan pasayadi.

## **2-bob. Tipik imloviy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilish texnologiyalari:**

### **2.1. Qo`pol (jiddiy) va qo`pol bo`lmagan (juz`iy) xatolar ustida ishlash**

Hozirgi kunda maktab dasturida xatolarni aniqlashning quyidagi usullari faollashgan:

1. Xatolarni miqdori va sifati (tip yoki xarakteri) jihatidan aniqlash.
2. Xatolarning miqdori va xususiy (individual)ligini aniqlash.
3. Xatolarni o`tilgan yoki o`tilmagan qoidalarga oidligi jihatidan aniqlash.

Xatolarni miqdor jihatidan aniqlash o`quvchilarning umumiy savodxonlik darajasini belgilash uchun qulay bo`lib, bilimni oshirishda amaliy qimmatga ega emas. O`quvchilar bilimni oshirish va mustahkamlash, malakasini kengaytirishda esa xatolar sifati (tipi va xarakteri)ga e`tibor berish muhim ilmiy-metodik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har bir baho uchun me`yor va mezonni belgilashda xatolarning xarakteri, tipi va miqdori hisobga olinadi. Bu jihatdan ular quyidagicha guruhlanadi:

- a) qo`pol va qo`pol bo`lmagan xatolar;
- b) bir xil yoki har xil tipdagi xatolar;
- v) takroriy yoki tasodifiy xatolar;
- g) o`tilgan mavzuga doir yoki tegishli bo`lmagan xatolar.

Qo`pol (jiddiy) va qo`pol bo`lmagan (juz`iy) xatolar quyidagi printsiplar asosida belgilanadi

#### **Qo`pol (jiddiy) xatolar:**

1. Dastur hajmi va talab darajasidagi ona tili hodisalarini yaxshi o`zlashtirmaslik, har bir sinf uchun mo`ljallangan va o`tilgan orfografik, punktuatsion qoidalarni puxta bilmaslik, ulardan yozma ishlarda to`g`ri foydalana olmaslik.

2. Sodir bo`lgan xato tufayli so`z ma`nosi va gap mazmunining jiddiy o`zgarishi hamda farqlanishi (masalan, *qattiq o`rniga qatig; davo o`rnida da`vo, sur`at o`rnida surat yozish* kabi holatlar).

3. o, q, h kabi diakretik belgili harflarni belgisiz yozish (ko`z o`rnida kuz, qo`l o`rnida ko`l, kul o`rnida ko`l, ko`zi o`rnida ko`zi, shox o`rnida shoh; xil-xil o`rnida hil-hil).

4. Juft so`zlarni yozishda, satrdan satrga ko`chirishda defis qo`ymaslik, shuningdek, defis o`rnida tire ishlatish va aksincha. Shuningdek, tire va defislarni grafik jihatdan ham farqlab ishlatish zarur.

5. Muayyan gapga xos tinish belgilarini qo`llamaslik yoki noo`rin ishlatish (masalan, gap oxirida qo`yilishi shart bo`lgan nuqta, so`roq, undov, ko`p nuqta, nuqtali vergul kabilarni tushirib qoldirish).

6. So`z shakllarini qorishtirish, almashtirib qo`llash:

a) kelishik qo`shimchalarini qorishtirish, farqlamaslik qo`pol uslubiy xato sanaladi;

b) yasovchi qo`shimchalarni noto`g`ri ishlatish: bevosita-bavosita, beobro`-baobro`; sinfdosh-hamsinf yoki hamqishloq- qishloqdosh;

#### **Qo`pol bo`lmagan (juz'iy) xatolar:**

1) dastur doirasidan tashqari va eslatmalarda berilgan qoidalarni bilmaslik va yozma ishlarda ularga amal qilmaslik;

2) sheva xatolari (ona o`rnida oyi, aya, momo, chaqimchi o`rnida chaqimboz, kiyik o`rnida kiyikcha; mol bozor o`rnida hayvon bozor: to`xtamoq o`rnida bostirib to`xtamoq kabi qo`llashlar);

3) ko`ngil, tongi, o`zingiz, yashchik, pomeschik kabi so`zlarda ng va shch harfiy birikmalarni ajratib ko`chirish: ko`n-gil, sin-gil, yan-gi, ton-gi, o`zin-giz, yash-chik, pomesch-chik kabi;

4) bir tinish belgisi o`rinda ikkinchisini almashtirib qo`llash yoki qo`sh tinish belgilardan birontasini tushirib qoldirish (masalan, gap o`rtasida kelgan kishilar, undalmalar, undovlarni faqat bir tomondan ajratish; qavslar yoki qo`shtirnoqlardan bir elementini tushirib qoldirish kabi);

5) ba'zi joy nomlari, shaxs otlari yoki personajlar ismini nuqsonli yozish (Hamrobibi-Hamrobuvi, Shchedrin- Shedrin);

6) tinish belgilarning birgalikda ishlatilishidagi tartibning buzilishi yoki

bittasining tushib qolishi:?! shaklda emas, !? shaklda qo'llash, !... shaklda emas, ??? shaklda ishlatish kabi;

7) murakkab atoqli atamalarni yozishda bosh harflarni nuqsonli ishlatish: Xalqlar do'stligi saroyi - Xalqlar Do'stligi saroyi; Yangi Urganch - yangi Urganch kabi;

8) yarim qavsdan so'ng nuqta ishlatish yoki undan keyingi so'zni (turdosh otni) bosh harf bilan yozish;

9) tinish belgilarini nomuvofiq va ortiqcha ishlatish;

10) ba'zi so'zlarni ikki xil ishlatish: oliy qimmat, olihimmat, hamma vaqt - hammavaqt, Obi-havo - obhavo.

Ko'p uchraydigan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini amaliyotga joriy qilish uchun o'qituvchi jiddiy izlanishi kerak bo'ladi. Aksariyat o'quvchilar "h" va "x" harfi qatnashgan so'zlarni yozishda xatolarga yo'l qo'yadilar. Tovushlarni o'rganish davomida "H" tovushi bo'g'izda talaffuz qilinishi, "X" tovushi dag'alroq aytilishi haqida qisqacha ma'lumot beriladiz. Bu tovushlarning so'zdagi o'rnini yaxshi eslab qolish maqsadida o'quvchilar "Lug'at daftari" yuritadilar. Har bir darsda "H" va "X" ishtirok etgan yangi so'zlarni daftarga yozib boradilar. "Lug'at daftar" quyidagicha yuritiladi:

1) "H" bilan boshlanadigan va "h" so'z tarkibida qo'llanadigan so'zlar: masalan, hammom, havo, hisob, hissa, hovli, ho'kiz, holva; jahon, bahra, baho, mehmon, mehribon, qahramon, qahraton, shahar.

2) "X" bilan boshlanadigan va "x" so'z tarkibida qo'llanadigan so'zlar : masalan, xat, xaroba, xirmon, xola, xona, xontaxta, xalq, xursand; tuxum, yaxmalak, paxta, mix, olxo'ri, daraxt, saxiy, shaxs.

Mashg'ulotlarda "H" va "X" tovushlari imlosi, ularning bir-biridan farqlash usullari haqida batafsil ma'lumot berib boriladi.

"H" harfi "Alifbo"ning 7-harfi, bo'g'izda sirg'alib hosil bo'ladigan jarangsiz undosh tovushni bildiradi. Bu tovush yumshoq talaffuz qilinadi. "X" harfi esa "Alifbo"ning 22-harfi bo'lib, chuqur til orqasida hosil bo'luvchi

sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni bildiradi. Uning jarangli jufti "G" undoshidir.

"H" va "X" tovushlarni yaxshi ajrata olmaydigan o`quvchilar so`zlarni taxminan yozadilar. Natijada insho, bayon, diktant kabi yozma ishlarda ko`p xatolarga yo`l qo`yadilar. Xato qilmaslik uchun quyidagi qoidalarni puxta o`zlashtirish lozim bo`ladi. So`z tarkibidagi "H" va "X" tovushlarini farqlash usullari quyidagicha:

1. Agar "H" tovushi so`z o`rtasida bo`lsa, "Y" undoshiga o`xshatib talaffuz qilinishi mumkin. Bu ko`pincha ismlarni talaffuz qilishda namoyon bo`ladi: masalan: Abdurahim-Abdurayim, Rahim –Rayim, Abduvohid- Abduvoyid, Zohid-Zoyid, Tohir-Toyir, Zohir-Zoyir, shuningdek, shohi-shoyi kabi so`zlarda.

2. So`z tarkibidagi "H" tovushi tushirib qoldirilib talaffuz qilinadi yoki "a" unlisi orttirib aytiladi. Masalan: Abdurahmon- Abduramon, Rahmatilla- Ramatilla, Rahmon- Ramon, Zahro- Zaro, Muhammad- Mamat, Zuhra –Zo`ra, qahri keldi-qaari keldi, shahar tomon- shaar tomon, giyoh –giyo, siyoh- siyo, podshoh-podsho, goh-goh – go-go, kabi.

3. Qipchoq lahjasidagi shevalarda, ya'ni qishloq shevalarida so`z boshida kelgan "H" tovushining tushib qolishi kuzatiladi. Masalan: Hayitmat – Ayitmat, Hakimboy – Akimboy, hayqirmoq – ayqirmoq.

Bundan tashqari xorijiy tillardan, jumladan, arab tilidan o`zlashgan, ma'nosi bir-biriga yaqin bo`lgan "H"li yoki "X"li so`zlarda bir xil harflar yoziladi. Masalan: xabar – (so`z o`zagi x-b-r), axbor (xabarlar), axborot (jamlangan xabarlar), muxbir (xabarchi); xulq- (so`z o`zagi x-l-q)- odob, axloq ( xulqlar); xalq- (so`z o`zagi x-l-q) – yaratilgan, xoliq- yaratuvchi, xaloyiq –xalq, maxluq- yaratilgan.

Haq – (so`z o`zagi h-q), huquq ( haqning ko`pligi, ya'ni haqlar); hol – ( so`z o`zagi h-l), ahvol (holning ko`pligi),ahvolot – holat; had – ( so`z o`zagi h-d )- chegara ma'nosida, sarhad – davlat chegarasi, haddidan oshmoq – o`zining chegarasini bilmaslik; habib- do`st (so`z o`zagi h-b-b), ahbob – do`stlar, mahbub, Mahbuba, Habib, Habiba; hosil- (so`z o`zagi h-s-l), mahsul, mahsulot.

YUqoridagi usullar “H” bilan “X” tovushlarini farqlashda bizga katta yordam beradi. eng asosiysi, izohli lug’atlardan, imlo lugatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ko`proq badiiy asarlarni, gazeta va jurnallarni muntazam o`qish ham imlo qoidalarini mukammal o`rganishda muhim omil hisoblanadi.

## 2.2. Bir xil va har xil tipdagi xatolar ustida ishlash

Muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion va uslubiy qoida bilan bog`liq bo`lgan nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo`ladi. Masalan, o`quvchi besht o`rinda h o`rnida bir so`zda x yozgan bo`lsa, hammasi bitta orfografik xato hisoblanadi.

Agar o`quvchi kirish so`zlarning yozilishida oltita punktuatsion xatoga yo`l qo`ygan bo`lsa, hammasi bitta hisoblanadi. Bordi-yu, o`quvchi vergulning kirish so`zlarda, uyushiq bo`laklarda va bog`lovchisiz qo`shma gap qismlari orasida ishlatilishini bilmasa, bularning har biri alohida-alohida xato sanaladi.

Agar o`quvchi yozma ishda qaratqich belgisini uch o`rnida noto`g`ri qo`llagan bo`lsa, bitta uslub xatosi sanaladi.

Ta`lim tizimida sodir bo`layotgan o`zgarish va yangilanishlar o`quvchilarga bilim, ko`nikma va malakalarni berish bilan bir qatorda ularning o`ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan mehr uyg`otish, vatanparvarlikni ongiga va qalbiga singdirishni ko`zda tutadi.

Yurtboshimiz ota-onalar, ustoz va murabbiylarga qarata shunday deydilar: “Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko`rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish ta`lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo`lishi lozim”.

Ta`lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish, ta`limning yangilangan texnologik modellarini yaratish va ulardan keng

foydalanish yo`lga qo`yilmoqda. Buning natijasida o`quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyati, mustaqil bilim olishga intilishlarining ortishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda ona tili ta`limiga qo`yiladigan eng muhim talablardan biri o`quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdan iboratdir. Fikr bayon qilish og`zaki va yozma shaklda bo`lib, uning mahsuli sifatida matn yaratiladi.<sup>1</sup>

Ilg`or pedagogik texnologiya darslarining an`anaviy darslardan asosiy yana bir farqi shundaki, bu darsda o`quvchiga erkinlik muhiti yaratib beriladi. Ya`ni o`quvchi muloqotga tortiladi, shaxs sifatida hurmat qilish orqali do`stona munosabatdagi o`quv muhiti yaratiladi, o`quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Mazkur usullardan “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Aqliy hujum”, “Tarmoqlar”, “B B B”, “6x6x6” va boshqalardir. Bu usullardan o`quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin.

Ona tili darslarida o`qitishning noan`anaviy usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Bu usul bir qancha metodlarni qamrab olgan. Masalan: suhbat, test, og`zaki bayon, mustaqil ish, lug`at bilan ishlash, diktant, o`yin, bellashuv, musobaqa, sayohat, savol-javob va boshqalar .

Ona tilidan noan`anaviy darslarda diktant turlaridan, boshqotirma va rebuslardan foydalanilsa, ular o`quvchini o`ylashga, fikrlashga o`rgatadi, tafakkurini charxlaydi.

O`qituvchi bir soatlik dars davomida mana shu metodlarning bir nechtasidan samarali foydalana olsa, ko`zlangan maqsadga oson erisha oladi.

O`quvchining yozma nutqini rivojlantirishda noan`anaviy darslarda diktant usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. O`quvchilarning yozma nutqlarini shakllantirish maqsadida har bir o`quvchiga individual ravishda lug`at daftari tutkizdim. 1-sinfda savod o`rgatish davri alifbe darsida o`rganilgan tovush yozuv darsida mana shu harfning yozmacha shaklini o`rgatdim va shu harf qatnashgan

---

<sup>1</sup> Собирова М.Муаммоли таълим жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш.«Дарс самарадорлигини ошириш» илмий ва методик ишлар тўплами. Наманган, 1997 йил, 91-97-бетлар; Ўқувчилар нутқини ўстиришда муаммоли саволлар.«Тил ва адабиёт таълими» журнали, Тошкент, 1997 йил 3-сон 25-30-бетлар; Матн устида ишлаш жараёнида ўқувчи сўз бойлигини ошириш. «Тил ва адабиёт таълими» журнали, Тошкент, 1998 йил 1-сон 29-30 бетлар; Тил таълимида ахборот технологияларини қўллаш. Мазлума Асқарова ва ўзбек тилшунослиги масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент. 2014 йил. 216-219-бетлар; Ёзма нутқни ўстиришда замонавий техника воситаларининг ўрни. “Таълим жараёнида ёзма саводхонликни оширишнинг асосий омиллари”. Тошкент. 2015 йил. 313-315-бетлар.



soʻzlardan oʻrganilgan harflar asosida lugʻat diktanti yozdirdim. Masalan: avvalgi darsda bosh M harfini va soʻzlar yozishni oʻrganilgan. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida Mannon, mana, min, Omon, Omina, Naima, nima, nom, onam soʻzlari aytib, lugʻat diktanti oʻtkaziladi. Oʻquvchilar kerakli joylarga vergul va nuqtani qoʻya oladilar. Oʻquvchilar yozib boʻlganlaridan soʻng monitor orqali mana shu soʻzlarning bosmacha yozuvdagi shaklini namoyon etiladi. Monitor orqali koʻrsatilgan soʻzlarni lugʻat daftarlariga koʻchirib yozishlarini aytiladi. Bu bilan oʻquvchilarda koʻchirib yozuv malakalarini hosil qiladi. Natijada lugʻat diktanti bilan bir qatorda koʻchiruv diktanti oʻrgatib borildi. Oʻquvchilar yozib boʻlganlaridan soʻng avvalgi yozgan diktantlariga solishtirishlarini, xatolarini bilib olishlarini tushuntirdim va parta oralab yurib, tekshirib bordim. Mana endi bir vaqtning oʻzida diktantning 3 turini oʻtkazilishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu oʻtkazilgan diktant orqali oʻquvchilarda yozma nutq koʻnikmalari va malakalari rivojlanib boradi. **“Kimning xati chiroyli?”**, **“Toʻgʻri javoblar eshaloni”**, **“Sirli kataklarni toʻldir”**, **“Keyingi boʻgʻinni top”**, **“Tallaffuzda adashmang”** kabi bir nechta didaktik oʻyinlardan samarali foydalanilsa, oʻquvchilarning yozma nutqlari bilan bir qatorda ogʻzaki nutqlarini ham yaxshi rivojlanishiga erisha olamiz. **“Kimning xati chiroyli”** oʻyinida eng chiroyli yozgan besh nafar oʻquvchining daftarlari ilib qoʻyiladi. Doskada beshta qator chiziladi va shu oʻquvchilarning ismlari yozilib, boshqa oʻquvchilar oʻzlari xohlagan oʻquvchi ismining toʻgʻrisiga bir balldan qoʻyadilar. Besh nafar oʻquvchidan qay biri koʻp ball yigʻsa, shu oʻquvchi gʻolib hisoblanadi.

**“Sirli kataklarni toʻldir”** oʻyinida oʻquvchilarga kataklarni toʻldirib, tovushdosh soʻzlar hosil qilish vazifasini topshiriladi. Masalan, gul, kul, pul, rul, tul, qul, shul.

**“Keyingi boʻgʻinni top”** oʻyinida bir necha boʻgʻinlar beriladi. Berilgan boʻgʻinlar ishtirokida soʻz tuzish kerakligini tushuntiradi. Qaysi oʻquvchi koʻp soʻz tuza olsa, shu oʻquvchi ragʻbatlantiriladi. Masalan, no, xu, mu, la, sa, bo, ra, ju, ko, do... Bola, bobo, judo, samo, dono, kosa...

Ushbu ta'limiy o'yinlar har bir o'quvchiga o'zini namoyish etish, fikrini o'stirish topshiriqni zavq bilan bajarish imkonini beradi. Har bir kishida tarbiyalanishi uchun zarur bo'lgan tezkorlik, hushyorlik, topqirlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik kabi ijobiy sifatlarni rivojlantiradi. Dars mashg'ulotlarida faqat bir xildagi o'yin topshiriqlar bilan chegaralanib qolmasligimiz zarur. Darslarda ko'proq ijodiylikka undovchi o'yinlarga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur deb o'ylayman.

Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar ustida ishlashda quyidagi dars usulini qo'llansa samarali bo'ladi.

1. **Maqsad:** o'quvchilarga yonma-yon kelgan bir xilli undoshlarni tushuntirish.
  - A) ta'limiy maqsad : o'quvchilarga DTS talablari asosida ta'lim berish;
  - B) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga estetik, axloqiy, vatanparvarlik, ruhida tarbiya berish;
  - C) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarga yonma-yon kelgan bir xilli undoshli so'zlarning yozilishi va talaffuzini qunt bilan o'rganishni rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, umumlashtirish.

**Darsda foydalaniladigan turli xil metodlar:** an'anaviy, interfaol, zamonaviy.

**Darsda foydalaniladigan turli xil jihozlar:** darslik, metodik vositalar, ko'rgazmalar, ditaktik materiallar.

Darsning borishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) salomlashish;
- c) davomatni aniqlash;
- d) yangiliklar haqida so'rash.

**O'tgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.**

O'quvchilarning olgan bilimlarini sinash uchun 10 ta savol beriladi.

Bular quyidagilar:

- 1) undosh tovushlar nechta? javob: 23 ta.
- 2) jarangli tovushlarni sanang. javob: b,d,g,j,l,m,n,r,v,y,z.

- 3) jarangsiz tovushlarni sanang javob: b,h,k,p,q,s,t,x,ch,sh.
- 4) jarangli undosh o`rniga jarangsiz jufti eshitiladigan so`zlardan ayting.  
javob: kitob,avlod, hisob, ozod, mayiz, yalpiz.
- 5) jarangsiz eshitiladigan harfni aniqlash uchun qaysi unli xarflar qo`shib aytiladi? unli harf/: kitob+i, mardona, yalpiz+i qo`shiladi.  
monitorda: **vatan, qorachiqlar, makon, oliyjanob, g'amxo`rlik** so`zlari ko`rsatiladi va bunda har bir so`zni tovush tomonidan tahlil qilinadi.

Vatan, 5ta harf, 2 ta unli, 3 ta undosh, 2 ta jarangli undosh tovush,

5 ta tovush, 1 ta jarangsiz undosh tovush, 2 bo`g'in: va-tan.

Qorachiqlar: 10 ta harf, 10 ta tovush, 4 ta unli harf, 6ta undosh harf, 3ta jarangli harf, 3ta jarangsiz harflar, 4 bo`g'inli: qo-ra-chiq-lar.

Makon: 5ta harf, 5ta tovush, 2 ta unli, 3ta undosh, 2ta jarangli, 1 ta jarangsiz, 2 bo`g'inli: ma-kon.

Oliyjanob: 9 ta harf , 9 ta tovush, 4 ta unli, 5 ta undosh, 5 ta jarangli,

4 bo`g'inli: o-liy-ja-nob.


G'amxo`rlik: 9 ta harf, 9 ta tovush, 3 ta unli, 6 ta undosh, 4 ta jarangli, 2 ta jarangsiz, 3 bo`g'inli: g'am-xo`r-lik.

Javob bergan o`quvchilarning har biriga bittadan rag'bat kartochkasi beriladi.

## 2. Yangi mavzuni tushuntirish: Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar.

62-64-mashqlar.

O`quvchilar diqqatini monitordagi kungaboqar, lola, gunafsha, boychechak gullariga qarataman.



Bunday klster o`yini orqali o`quvchilarning topqirligini, zukkoligini oshiriladi, yangi mavzu bo`yicha ma`lumot beriladi. O`quvchilardan yonma-yon kelgan bir xil undoshli so`zlar so`raladi va rag`bat kartochkasi beriladi.

Yana monitorga o`quvchilarning diqqatini qaratamiz:

Ba`zi so`zlarda ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi:

**G`alla, telegramma, kassa, pilla.**

Bo`g`in ko`chirishda so`zlardagi yonma-yon kelgan bir xil undoshning biri oldingi yo`lda qolib, ikkinchisi keyingi yo`lga o`tkaziladi: **do`p-pi, yak-ka, kat-ta, ar-ra.**

Qoidani tahlil qilib bo`llganidan so`ng 63-mashqni bajaramiz.

Mashq shartini o`quvchilar o`qishadi va bajariladi. Matnda berilgan har bir gap bittadan o`quvchiga o`qitiladi va yonma-yon kelgan bir xil undoshli so`zlar topiladi. Matndagi topilgan so`zlar o`quvchilar tomonidan yozuv taxtasiga yozdiriladi. Kaligrafiyasi, orfografik va punktuatsion xatolari o`qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

63-mashqdagi so`zlar bo`ginga bo`lib o`qitiladi. Bunda har bir so`zning ma`nosi tushuntiriladi.

Bit-ta- bir-dona. Do-vuch-cha- g`o`-ra. Is-siq- qaynoq. Lab-bay- javob berish. Mar-ra- g`oliblik va hokazo.

Shu tarzda tushuntirilgandan so`ng noan`anaviy usullardan „Mustaqil ish“ metodidan foydalanamiz. Bu metod o`quvchilarni o`z ustida mustaqil ishlashga undaydi, chiroyli yozishga, bo`g`inlar ustida ishlashga imkon yaratiladi. Uchta partadan bittadan o`quvchi yozuv taxtasiga chiqadi va uchtdan so`zni bo`g`inga bo`lib yozadi:

Bit-ta.

Op-poq.

Qat-tiq.

Do-vuch-cha

Lab-bay.

Ham-ma.


Is-siq.

Mar-ra.

Jiz-za.

#### 4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Buning uchun biz rebuslardan foydalanamiz. Bu o`quvchilarni o`ylashga, fikrlashga, tafakkurini charxlashga yordam beradi.



1. Karra

2. ikki

3. latta

4. omma

5. gramm

6. marra

7. antenna

8. Mannon

9. mitti

### 2.3. Takroriy va tasodifiy xatolar ustida ishlash

Yozma ishlarda **takroriy va tasodifiy xatolar** ham uchrab turadi. Masalan, *tushunmoq*, *qutulmoq*, *turQunlik*, *sukunat* kabi so`zlar barcha o`rinlarda to`g`ri yozilib, bir o`rinda *tushinmoq* tarzida ishlatilsa, tasodifiy xato sanaladi. Agar *qutulmoq* so`zi besh o`rinda *qutilmoq* tarzida qo`llansa, takroriy xato hisoblanadi. Shuningdek, bir so`z nuqsonli shaklda bir necha o`rinda ishlatiladi: *zarar so`zi zarar*, *tuproq so`zi turpoq* tarzida ishlatilgan bo`lishi mumkin. Ba`zan *1441 o`rnida 1941* yozib qo`yiladi. Bunday faktik xatolar ham keng ma`noda tasodifiy nuqsonlar tipiga kiradi. Shuni ta`kidlash zarurki, takroriy va tasodifiy nuqsonlar yozma ishda tuzatiladi, lekin jiddiy xato hisoblanmaydi, ya`ni baholash mezonini va me`yoriga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatmaydi.

Inshoni baholashda hisobga olinmaydigan xatolar bo`ladimi?

**Quyidagi nuqsonlar yozma ishlarni baholashda hisobga olinmaydi:**

1. Maktab grammatikasi doirasiga kirmagan orfografik, punktuatsion nuqsonlar.

2. Hali o`rganilmagan qoidalarga oid nuqsonlar.

3. Ilmiy-nazariy jihatdan maxsus tekshirilmagan va yozilishi joriy etilmagan nuqsonlar.

4. Individual (avtor) nutqqa xos punktuatsion holatlarning berilishidagi nuqsonlar.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yilning 13 maydagi 203-sonli "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi qarorining amaldagi ijrosi sifatida o'quvchilarning bilim darajalarini nazorat qilishning reyting tizimi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-9-sinflarida sinab ko'rildi.

Reyting nazorati o'quvchilar bilimining qay darajada ekanini ko'rsatish bilan ularning shu fan bo'yicha qay darajada malaka hosil qilganini ham ko'rsatib turadi.

Insho matnidan kelib chiqib, imtihon, olimpiada, yakuniy nazorat insholari uchun reyting tizimida quyidagi ballarni qo'yish mumkin:

**9 (86-95) ball** shunday inshoga qo'yiladi:

a) o'quvchi mavzuni to'g'ri va batafsil yoritgan bo'lsa, adabiy materialni chuqur va atroflicha bilishi ko'rinib tursa, undan mavzuni yoritishda o'rinli foydalana olsa, bayon qilingan materialni baholay bilsa, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lsa;

b) fikrni ifodalashda mantiy izchillik bo'lsa va xulosalar to'g'ri isbotlansa;

v) aniq, tushunarli, ifodali til bilan bayon qilingan bo'lsa;

g) so'z qo'llashda 1 ta qo'pol bo'lmagan xato bo'lsa; 1-2 ta qo'pol bo'lmagan orfografik yoki punktuatsion xato bo'lsa.

**8 (71-85) ball:**

a) inshodan mustaqil va erkin fikrlash sezilib tursa, mulohazalarni izchil bayon qilishi va isbotlay olishi ko'rinib tursa;

b) insho to'g'ri, izchil va adabiy tilda yozilgan, ammo fikrni bayon qilishda ba'zi bir noaniqliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;

v) so'z tanlashda 1-2 ta uslubiy, shuningdek, 2 ta orfografik va 2 ta

puntuatsion xatosi bo`lsa;

**6 (56-70) ball:**

a) mavzuga asosan to`g`ri javob berilgan bo`lsa, ammo u sxematik yoritilsa, faktik materialni bayon qilishda ba`zi kamchiliklarga yo`l qo`yilsa yoki fikrni bayon qilishda izchillik uzilgan bo`lsa;

b) so`z saylashda (uslubiy) 3 tadan, orfografik xato 4 tadan, puntuatsion xato 5 tadan ortiq bo`lmasa.

**4 (55 va undan kam) ball :**

a) o`quvchi mavzuni tushunmaganligi yoki adabiy materialni juda sust bilishi sezib tursa;

b) mavzu to`liq ochilmagan yoki undan chetga chiqilgan bo`lsa;

v) bayon qolipga tushib qolgan trafaret xarakterda bo`lsa, darslikdagi asar tahlili ko`chirilgan yoki quruq takrorlangan bo`lsa;

g) fikrni bayon qilishda qo`pol faktik xatolarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, izchillik ancha buzilgan bo`lsa;

d) so`z saylashda 4-6 tadan, orfografik 5-7 tadan, puntuatsion xatolar 6-10 tadan ortiq bo`lsa.

Bexato, mazmuni va uslubi jihatidan barkamol bo`lgan insho **10 (96-100) ballga** baholanadi.

**Inshoni baho tizimida (5 ballik) baholash**

Agar insho mavzusi batafsil reja asosida yoritilgan bo`lsa, tanlangan manbadan o`rinli foydalana olingan, mustaqil, ijodiy fikrlar bilan mantiqli yozilgan bo`lsa, mazmuniga «5» baho qo`yiladi. Imlo jihatdan savodxon yozilgan bo`lsa, 1-2 ga qo`pol bo`lmagan imlo yoki ishorat xatolari bo`lsa, inshoga «5» baho qo`yiladi. Agar savodxonligida xatolar soni 2 tadan ortiq bo`lsa, savodxonlik uchun qo`yiladigan baho pasaytiriladi.

Insho mazmuni batafsil yoritilgan bo`lsa, erkin fikrlashi sezilib tursa, ammo fikrni bayon qilishda ba`zi noaniqliklarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, mazmuniga «4» baho qo`yiladi. 2 ta uslubiy, 2-3 ta imlo yoki ko`rsatilgan me`yordan oshib ketsa, uning bahosi pasaytiriladi.

Mavzu asosan to'g'ri yoritilgan bo'lsa, ammo bayon qilishda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, fikrlashda izchillik bo'lmasa, mazmuniga 3 «baho» qo'yiladi. 2-3 ta uslubiy xato, 3-4 ta imlo yoki ishoraviy xato bo'lsa, «3» baho qo'yiladi.

Mavzu to'liq ochilmagan bo'lsa yoki mavzudan chetga chiqilgan bo'lsa, fikrni bayon qilishda juz'iy xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, mazmuniga «2» baho qo'yiladi. 6 ta uslubiy xato, 7 tadan ortiq imlo va ishoraviy xato bo'lsa, savodxonligiga ham «2» baho qo'yiladi. Xatolar soni 10 tadan ortiq bo'lsa, «1» baho qo'yiladi.

Ixtisoslashgan sinflarda o'qituvchi o'zi o'quvchilarning o'zlashtirishidan kelib chiqib me'yorni o'zgartirishi mumkin.

Insho xatolari ustida ishlash o'qituvchidan e'tibor va ijodkorlikni talab qiladigan mashg'ulot turidir. O'ar bir o'quvchiga insholardagi xatoni ko'rsatib qo'yishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu xatolarni bartaraf qilish uchun insho muallifi bilan ishlash kerak bo'ladi. o'qituvchi insho xatolarini tasnif qilar ekan, har bir xatoning kelib chiqish sabablarini tasavvur qiladi. o'quvchilarning ko'pchiligiga xos bo'lgan va ayrim o'quvchigagina xos bo'lgan xatolarni hisobga oladi. Baholarni e'lon qilish, jurnalga o'tkazish, eng yaxshi va eng yomon insholarga tavsif berish kabi ishlar tugagach, insho xatolari ustida ishlash boshlanadi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalanish mumkin:

1. Har bir o'quvchining o'z xatolari ustida ishlashi.
2. Ko'pchilikka xos (tipik) xatolar ustida yozuv taxtasida ish olib borish.
3. Taxtadagi so'zlar vositasida gaplar tuzish musobaqasi.
4. Mavzuga doir lug'at diktantlari o'tkazib borish.
5. Doimiy va muvaqqat savodxonlik lavhalari va taxtalaridan fodalanish.
6. Berilgan gap yoki jumla variantlarini tuzish musobaqasini o'tkazish.
7. eng ma'qul epigraf topish konkursini o'tkazish.
8. Imlo lug'ati bilan ishlash.
9. Berilgan so'z sinonimlarini topish (sinonimik qator hosil qilish).
10. Berilgan so'z antonimlarini topish.



11. Asar qahramonlariga yoki adiblarga sifatlashlar topish.
12. Ustunlarga ajratib yozish mashqlarini o`tkazish.
13. Adabiyot daftarida eng qiyin so`zlar imlo lug`atini tuzib borish.
14. «Qiyin so`zlar zanjiri» o`yinidan foydalanish.
15. Insho g`oyasi va mavzusiga mos maqollar topish.
16. Biron inshoga yoki uning parchasiga sarlavha topish.
17. Mo`jizalar maydoni, charxpalak, boshqotirma (krossvord) tipidagi o`yinlardan foydalanib, qiyin so`zlar yozilishini xotiraga singdirish.
18. Eng qiyin so`zlarning rebusini tuzish.
19. Elektron hisoblash mashinasidagi maxsus dastur asosida mashqlar o`tkazish.
20. Matnlar vositasida savodxonlikni ko`tarish va hokazo.

Inshodagi xatolar ustida ishlash jarayonida insho matnlari uchun faol bo`lgan leksika - 300-400 so`z quyi sinflardan boshlab o`quvchilarga singdirib borilishi, ularni to`g`ri yozishga doir mashqlar uzluksiz va tadrijiy ravishda o`tkazilib borishi yaxshi natija beradi. O`quvchining diqqati va xotirasini o`yinlar hamda mashqlar vositasida savodxonlik tomonga yo`naltirishning yangi usullarini samarali qo`llash o`zbek tili va adabiyoti mutaxassislariga havola.

O`quvchilarning yozma ishlarida quyidagi takroriy xatoliklar uchradi:

A) bayon va insholar uchun to`g`ri epigraf tanlay olmaslik;

B) bayon va inshoga reja tuzish malakasining etarli emasligi. Reja tuzishda izchillikning yo`qligi;

V) reja bandlarining yoritilmasligi, reja asosida mavzuni izchil yorita olmaslik (to`g`ri kelgan fikrni yozib mavzuga amal qilmaslik) ;

G) bo`g`in ko`chirish qoidalarini bilmaslik;

D) qo`shimchalar imlosi (-ning o`rnida -ni, -da o`rnida -ga, - ni ishlatilishi h.k);

E) qo`shma, juft, takroriy so`zlar imlosini bilmaslik;

Yo) ishora xatolariga yo`l qo`yish (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko`p nuqta, undov, qo`shtirnoq, tire);

J) xat boshiga rioya qilmaslik (matnni qismga bo`la olmaslik);

Z) ma`nodosh, shakldosh va paronim so`zlarni o`rinli qo`llay bilmaslik  
(bog`lanmaydigan so`zni bog`lash);

I) ishning xulosalanmasligi.

## Umumiy xulosalar

“O`quvchilarga xos tipik imloviy xatolarni bartaraf qilish texnologiyalari” mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishni yozish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Respublikamizda umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun Davlat ta`lim standartlari ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo`lgan talablar ham ortmoqda.
2. Har bir o`quvchi ijodiy ishni yozishdan oldin mavzuni to`liq o`zlashtirgan va mustaqil tahlil qila oladigan bo`lishi kerak. Tanlangan mavzuni dalillar asosida, manbalar bilan boyitgan holda ijodiy yondashib bayon etishi kerak.
3. Dars jarayonida amalga oshiriladigan yozma mashg`ulotlarning aksariyati ko`chirib yozish, savollarga javob yozish, tayanch so`zlar asosida matn yaratishdir.
4. Yozma mashg`ulotlar o`quvchilarning yoshi va bilim darajasiga qarab soddadan murakkabga tomon berilishi kerak.
5. O`quvchilarning egallashi lozim bo`lgan ko`nikmalaridan biri grammatik atamaga asoslanib, grammatik vositani va qoidani, grammatik vositaga asoslanib, grammatik atama va qoidani eslay olish, unga amal qilib tuzatishdir.
6. O`quvchilarning yozma ishlarida quyidagi xatoliklar uchraydi:
  - a. bayon va insholar uchun to`g`ri epigraf tanlay olmaslik;
  - b. bayon va inshoga reja tuzish malakasining etarli emasligi. Reja tuzishda izchillikning yo`qligi;
  - c. reja bandlarining yoritilmasligi, reja asosida mavzuni izchil yoritma olmaslik (to`g`ri kelgan fikrni yozib mavzuga amal qilmaslik) ;
  - d. bo`g`in ko`chirish qoidalarini bilmaslik;
  - e. qo`shimchalar imlosi (-ning o`rnida -ni, -da o`rnida –ga, - ni ishlatilishi h.k);
  - f. qo`shma, juft, takroriy so`zlar imlosini bilmaslik;

- g. ishora xatolariga yo`l qo`yish (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko`p nuqta, undov, qo`shtirnoq, tire);
  - h. xat boshiga rioya qilmaslik (matnni qismga bo`la olmaslik);
  - i. ma`nodosh, shakldosh va paronim so`zlarni o`rinli qo`llay bilmaslik (bog`lanmaydigan so`zni bog`lash);
  - j. badiiy tasvir vositalaridan o`rinli foydalana olmaslik, jumlada gap bo`laklari tartibiga amal qilmaslik, matniy xato (bir so`zni takror –takror qo`llash) , mavzuni yoritish ko`nikmasi, bayon va insho mavzusi bilan matnning nomutanosibliigi (mavzudan chetga chiqish), badiiy izchillikning etishmasligi (ma`lumot matni bo`lishi), fikrlarning asoslanmasligi, so`z va so`z birikmalari, fikrlarning bir-biriga bog`lanmasligi;
  - k. ishning xulosalanmasligi.
7. Yozma ishdagi o`quvchi yo`l qo`ygan yuqoridagidek xatolarni tuzatish uchun imlo qoidalarini tez-tez esga tushirish.
  8. Yo`l qo`yilgan xatoni topish uchun qaerdan qidirish kerak, ya`ni til sathlarining qaysi qismidan topishni o`rgatish.
  9. Har bir darsda sinf taxtasida mashq bajarish, tahlil qilish, o`quvchining yozuvda yo`l qo`yadigan har bir xatosini doimiy ravishda hisobga olib borish, uning o`z vaqtida tahlilini o`tkazish.
  10. Mantiqiylikka rioya qilishga, ijodiy va mustaqil fikrlay olishga o`rgatish.
  11. Xatolar ustida ishlash uchun alohida daftarlar yuritish, unda xatolarni qaysi til hodisasiga muvofiq tuzatilishini qayd etish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **Siyosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining asosidir. “Ma’rifat” gazetasi. 2014 yil, 10 may. 38-son.
2. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O`zbekiston”, 2011. – 440 b.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. - Toshkent: “O`zbekiston”, 1990. – 410 bet.
4. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida. – Toshkent: O`zbekiston, 1997. – 326 bet.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 176 bet.

### **Ilmiy-metodik adabiyotlar:**

6. Abdullayeva M. Yozma ishlar asosida nutq o`stirish. “Ta’lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig`ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 327-329 betlar.
7. Abdurahmonova S. Ona tili darslarida o`quvchilarning yozma nutqini rivojlantiruvchi zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish usullari. “Ta’lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig`ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 351-353 betlar.
8. B.To`xliyev, M.Shamsieva, T.Ziyodova. O`zbek tili o`qitish metodikasi. Toshkent, 2010 yil
9. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O`zbek nutqi madaniyati ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988.
10. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. I-III qism. Toshkent: Navro`z, 1997, 1999.
11. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. Guliston, 1988.
12. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati. – Toshkent: O`qituvchi, 1985. – 114 bet.
13. Hojiyev A. O`zbek tili so`z yasalishi. –Toshkent: O`qituvchi, 1989.–109 bet

14. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O`zbekiston Milliy eniklopediyasi, 2002. – 166 bet.
15. M.Ahmedova. O`zbek tilini o`qitishda kompyuterdan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son, 73-75-betlar.
16. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – 40 bet.
17. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1995. – 232 bet.
18. Mamatova M. Til ta'limida o`quvchilarning yozma nutqini o`stirish tajribasidan. “Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 342-344 betlar.
19. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O`zbekiston, 1992. – 110 bet.
20. Mukarramov M. Hozirgi o`zbek adabiy tilining ilmiy stili. –Toshkent: Fan, 1984.
21. Munavvarova M. O`quvchilarning yozma nutqini o`stirish usullari. “Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 331-332 betlar.
22. Munavvarova Z. Axborot texnologiyalari-o`quvchi yozma nutqini rivojlantiruvchi vosita. “Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 320-322 betlar.
23. Ne`matov X., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O`qituvchi, 1993. –32 bet
24. Nosirov P. O`zbek nutqi madaniyati. Toshkent. 2004.
25. Nuriddinova M. O`quvchilar yozma nutqini interfaol usullar yordamida o`stirish. “Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 325-326 betlar.
26. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi.–Toshkent: Fan, 2008. –48 bet
27. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akadem nashr., 2010. – 112 bet.

28. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 176 bet.
29. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – 292 bet.
30. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Sharq, 2002.
31. O.Do`stmurodova. Ona tili ta`limining yangi texnologiyasida ta`lim maqsadi. «Til va adabiyot ta`limi» jurnali, 2006 y., 1-son, 8-12-betlar.
32. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O`qituvchi, 1992.
33. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O`qituvchi, 1993.
34. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi zamon o`zbek adabiy tili. – Toshkent. O`qituvchi, 1980. – 447 b.
35. Shoabdurahmonov Sh. O`zbek adabiy tilining leksik normalari. Nutq madaniyatiga oid masalalar. –Toshkent: Fan, 1973.
36. Sobirova M. Nutqni o`stirishda zamonaviy texnika vositalari o`rni. “Ta`lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari”. O`TDA yig`ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 313-315 betlar.
37. Sobirova M. Interfaol dars mohiyati. Til va tarjima muammolari. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 2007 yil, 204-206-bet. 0,3 b.t.
38. Sobirova M. Ona tili ta`limida ilg`or pedtexnologiyalardan foydalanish. Izlanish. Tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari to`plami. Toshkent. 2009 yil. 69-70-betlar. 0,2 b.t.
39. Sobirova M. Ta`lim sifatini oshirishda interaktiv o`qitish metodlarining roli. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o`qitishning dolzarb masalalari. Xalqaro konferentsiya materiallari. T., O`zDJTU, 2008 yil, 55-59-bet. 0,4 b.t.
40. Sobirova M. Til ta`limida axborot kommunikatsion texnologiyadan foydalanish. Toshkent, O`zb. Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil, 125-126-betlar. 0,2 b.t.

41. Sobirova M. Til ta'limida axborot-kommunikatsion texnologiyalar va texnik vositalar o'rni. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik jarayonni boshqarish omili» mavzusidagi ilmiy-uslubiy anjuman materiallari. Toshkent, 2009 yil, 249-250-betlar. 0,2 b.t.
42. Sobirova M. Til ta'limiga yangicha yondoshish. Toshkent, O'zb. Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil, 279-bet. 0,1 b.t.
43. Sobirova M. Uzluksiz ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va texnik vositalar o'rni. «O'zbek tili» doimiy anjumani 10 - yig'ini materiallari. Toshkent, «O'zbekiston» nash, 2009 yil. 243-b.
44. Tojiyev Y., Hasanov N., Tojimatov Sh., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 1994.
45. Toshpo'latov S., Sobirova M. Yozma nutqni slaydlar vositasida o'stirish. "Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari". O'TDA yig'ini materiallari. Toshkent. 2015 yil. 335-337 betlar.
46. Ziyodova T. Ona tili darslarida elektron o'quv qo'llanmalaridan foydalanish texnologiyasi. O'TDA 8-yig'ini, Xorazm, 2005 y., 71-72-bet.
47. Ziyodova T. Ona tili darslarida komp'yuterdan foydalanish. Kasb-hunar ta'limi jurnali, Toshkent, 2001 yil, 4-son, 16-17-betlar.
48. Ziyodova T., Shamsiyeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili uslubiyati. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003.

### **Internet adabiyotlari:**

49. [www.college.ru](http://www.college.ru)
50. [www.diser.rsl.ru](http://www.diser.rsl.ru)
51. [www.referat.ru](http://www.referat.ru)
52. [www.referet.uz](http://www.referet.uz)
53. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
54. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
55. [www.ziyo.edu.ru](http://www.ziyo.edu.ru)
56. [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)



---